

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST**AXBOROT-TAHLILY JURNALI****ISSN 2181-3345****TAHRIRIYAT KENGASHI***Bosh muharrir:*

Burxonov Akmal Eshondedaevich –
*yuridik fanlari nomzodi, O'zbekiston
Respublikasi Korruptsiyaga qarshi
kurashish agentligi direktori*

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI:

Narbayeva Tanzila Kamalovna –
Sotsiologiya fanlari doktori, O'zbekiston
Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi,
O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga
qarshi kurashish milliy kengashi raisi.

Saidov Akmal Xolmatovich – yuridik fanlar
doktori (DSc), akademik, O'zbekiston
Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
spikeri birinchi o'rinbosari, O'zbekiston
Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish
milliy kengashi raisi o'rinbosari.

Anga Timilsina – BMT Korruptsiyaga qarshi
kurashish global dasturi maslahatchisi.

Goran Klemenich – "Mintaqaviy muloqot"
xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti eksperti.

Yodgorov Xolmo'min Buvraboyevich –
O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy
kengashi raisi.

Xakimov Obid Arzikulovich – Iqtisodiyot
fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi
direktori.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich –
yuridik fanlar doktori (DSc), professor,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti boshlig'i.

Tuxtasheva Umida Abdilovna – Yuridik
fanlar doktori (DSc), professor, O'zbekiston
Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish
agentligi direktori o'rinbosari.

Kolenko Yevgeniy Vyacheslavovich –
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi boshlig'i.

Salayev Nodirbek Saparbayevich – Yuridik
fanlar doktori (DSc), professor, Toshkent davlat
yuridik universiteti.

Tursunov Axtam Salomovich – Yuridik
fanlar doktori, O'zbekiston Respublikasi Ichki
ishlar vazirligi Akademiyasi, Huquqbuzarliklar
profilaktikasi kafedrasini professori.

Bekmuradov Mansur Bobomuradovich –
Sotsiologiya fanlar doktori (DSc), professor,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi Boshqaruv
sotsiologiyasi va psixologiyasi kafedrasini
mudiri.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2021-yil
15-sentabr kuni ro'yxatga olingan.
GUVOHNOMA № 1210.**

TAHRIRIYAT MANZILI:

100070 Toshkent sh., Yakkasaroy tumani,
Sh. Rustaveli, 8 A uy
Telefon: +(998) 71-202-04-02.
Pochta: info@anticorruption.uz
Internet manzili: www.uacd.uz

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi
Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar
[Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0
shartlari asosida tarqatilgan.](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST**AXBOROT-TAHLILY JURNALI****ISSN 2181-3345****MUNDARIJA:****KIRISH SO'ZI**

Saidov A. O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati: xalqaro standartlar va milliy tizim 3

DAVLAT SIYOSATI

Burxanov A. O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda 9

QONUNCHILIK

Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy etilmoqda 12

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan prezident qarori imzolandi 13

Huquq ustuvorligini ta'minlash – korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim omili 14

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

Shirinov D. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlamentning roli 16

Yodgorov X. Ma'naviyat bo'lmagan joyda adolat bo'lmaydi 20

Raximova G. Davlat xaridlari tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar 23

OAV MINBARI

O'sarov O. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining o'rni 26

FUQAROLIK JAMIYAT INSTITUTLARI

Stayshyunayte L. O'zbekistonda korrupsiya xavfini baholash yoxud korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha birinchi laboratoriya qanday ishlayapti? 29

XALQARO HAMKORLIK

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari va istiqboldagi rejalar 36

DAYJEST

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan hujjatlar 40

MEHMON

Arutyunyan X. Korrupsiyaga qarshi islohotlarga universal, hammaga birdek ishlovchi yagona yondashuv mavjud emas 41

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

KIRISH SO'ZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY TIZIM

Akmal SAIDOV*



* O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi raisining o'rinbosari

Annotatsiya: Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlar, korruptsiyaning davlat va jamiyat hayotiga, shu jumladan inson huquqlariga amal qilinishiga salbiy ta'siri ko'rsatilib, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi O'zbekiston siyosati haqida ma'lumot berilgan.

Yuborilgan: 2022-yil 31-yanvar

Qabul qilingan: 2022-yil 11-fevral

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-mart

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Saidov, A. 2022. O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati: xalqaro standartlar va milliy tizim. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 3–8.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol2-iss1-pp3-8>

Korruptsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurashish dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham korruptsiyaga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Hozirgi paytda mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning diqqat markazida inson huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi turar ekan, taraqqiyot kushandasi, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishiga olib keladigan korruptsiyaga qarshi izchil kurash davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston 2008-yil 7-iyuldagi Qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi Konvensiyasiga, 2010-yilda esa Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korruptsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi a'zosiga aylandi.

Korruptsiya inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradigan omildir. Korruptsiya ko'lami iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi korruptsiyadan xoli mamlakat barpo etishni nazarda tutadi. Ushbu maqsad bugun butun jamiyatimizni jipslashtiruvchi omilga aylanmoqda".

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning inson huquqlari bo'yicha ustav organlari hamda shartnomaviy qo'mitalari korrupsiyaning inson huquqlarini ro'yobga chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratadi va korrupsiyaga barham berish bo'yicha o'zining muhim tavsiyalarini taqdim etadi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish: **"Korrupsiya jamiyat ishonchiga nisbatan eng razil, jinoyatkorona, axloqsiz xoinlikdir. U, ayniqsa, pandemiyaga o'xshaydigan inqirozlar vaqtida halokatlidir"**, – deb yozadi.

Korrupsiya siyosiy va iqtisodiy tuzumidan hamda rivojlanish darajasidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda mavjud. Korrupsiya transmilliy voqelik bo'lib, u bilan kurashish uchun milliy siyosatdan tashqari xalqaro hamkorlik ham zarurdir. BMT tomonidan korrupsiyaga qarshi qator xalqaro hujjatlar, jumladan, 1996-yilda Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlik bilan kurashish to'g'risidagi deklaratsiya, 1996-yilda Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro xulq-atvor kodeksi, 2000-yilda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya; 2003-yilda Korrupsiyaga qarshi konvensiya va boshqalar qabul qilingan.

Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab **"9-dekabr – Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"** sifatida nishonlab kelinmoqda.

Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi deklaratsiya, xususan, BMTga a'zo har bir davlatda xalqaro tadbirkorlik operatsiyalarida korrupsiyaning barcha shakllariga, jumladan, amaldagi qonunlarning samarali qo'llanilishini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha samarali va aniq choralar ko'rish zarurligini ta'kidlaydi.

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi korrupsiyani transmilliy jinoyatchilik hodisasi sifatida baholaydi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiya faqat alohida davlatlarning muammosi emas, balki

transmilliy hodisaga aylanganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, konvensiyada korrupsiyaning oldini olishda barcha davlatlar mas'ul ekanligi va bu sohadagi sa'y-harakatlar samarali bo'lishi uchun davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolar hamkorlikda faoliyat olib borishlari kerakligi belgilanadi.

Korrupsiya inson huquqlarining amal qilishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, korrupsiya jamiyatni sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilmani yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan muhim resurslardan mahrum qiladi.

Ikkinchidan, korrupsiya davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga, xususan, odil sudlov tizimiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir qiladi. Korrupsiya davlat organlariga nisbatan ishonchga putur yetkazadi, jumladan, sudlarni inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlash imkoniyatidan mahrum qiladi.

Korrupsiya inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq tovar va xizmatlardan foydalanishga salbiy ta'sir qiladi. Davlatning turli sohalaridagi siyosatini amalga oshirishga, ayniqsa, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga, huquq ustuvorligini ta'minlash jarayoniga putur yetkazadi.

Korrupsiya tufayli, birinchi navbatda, aholining eng zaif qatlamlari va shaxslar qiynaladi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha choralar inson huquqlari sohasidagi normalarga muvofiq bo'lishi kerak. Inson huquqlari sohasidagi normalar, prinsiplar va mexanizmlar korrupsiyaga qarshi choralar samarasini yanada kuchaytiradi.

Korrupsiya insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishi yo'lidagi eng katta g'ovdir. Korrupsiya ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik, kamsitmaslik va insonning jamiyat hayotining hamma jabhalarida ishtirok etishi bilan bog'liq inson huquqlarini himoya qilish prinsiplarini buzadi. Bu prinsiplarga rioya qilish korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali vositalari hisoblanadi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlariga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmog'qa. Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarini tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida korrupsiyaning oldini olish bilan bog'liq holat izchil yaxshilanib borayotganligi xalqaro e'tirofqa sabab bo'lmoqda. Buni bu boradagi xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rnini yaxshilanib borayotganligidan ham ko'rish mumkin. Bunga mamlakatda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash siyosati muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Uning quyidagi jihatlari ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Birinchidan, Davlatimiz rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi kuchli siyosiy irodasi, uning tizimlilik, izchillik va ochiqlik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilayotgan strategiyasi bu yo'nalishda qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarning asosiy omili bo'lmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'zining murojaatnomalari, nutqlarida bu baloga qarshi kurashning nechog'li muhim ekanligini qayta-qayta ta'kidlab kelmog'qa. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida Sh. Mirziyoyev respublikamizda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri – bu korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni tizimlilik asosida

muvofiqlashtirish va tubdan yangilash, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiya bilan bog'liq holatlarga chek qo'yish, deb ta'kidladi. Prezident tomonidan ilgari surilgan mazkur tashabbus O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik asoslari hamda huquq amaliyotining takomillashtirilishi bo'yicha aniq chora-tadbirlar bilan tasdiqlandi.

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasidagi faoliyatning institutsional asoslari yaratildi. Oliy Majlisning har ikkala palatalarida ham Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalar tashkil etildi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlari belgilanib, ijrosi ta'minlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etildi. Milliy kengashning ishchi organi – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlikka davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi faoliyatini ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik xalqaro standartlarga asosan muvofiqlashtirildi. O'zbekistonning BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shilishi – korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga zamin yaratdi. Mamlakatimizda "korrupsiya" so'zi ishlatilgan 210 ta normativ-huquqiy hujjat mavjud. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasi normalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida 2017-yil yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, yaxlit tizimni yaratish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bilan quyidagilar nazarda tutilmoqda:

birinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish chora-tadbirlari belgilandi;

ikkinchidan, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutildi;

uchinchidan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish chora-tadbirlari mustahkamlandi;

to'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari belgilandi.

To'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarning asosiy maqsadi korrupsiyaning oqibatlarini bilangina kurashib bo'lmasligini, balki korrupsiya holatlarini keltirib chiqaradigan

omillarni bartaraf etish, korrupsiyaning barvaqt oldini olish bo'yicha ishlarni ham o'z ichiga oladi.

Jumladan:

1) davlat organlari faoliyatining, jumladan, moliyaviy faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

2) ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini kengaytirish;

3) davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish;

4) korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash;

5) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan davlat himoyasi kafolatlarini kuchaytirish;

6) korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri yuritilishini ta'minlash, unga kiritilgan shaxslarga nisbatan cheklovlarni amalga oshirish;

7) jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish, shuningdek, Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining rolini yanada kuchaytirish;

8) korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish;

9) davlat boshqaruvi tizimida "inson omili"ni kamaytirib, raqamli texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ruxsat berishga doir tartib-taomillarni soddalashtirish;

10) kadrlarning intellektual salohiyatini, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimini joriy etish;

11) davlat organlari va idoralarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens-nazorat) tuzilmalari faoliyatini kuchaytirish;

12) korrupsiyaning oldini olish bo'yicha davlat xizmatchilarini muntazam o'qitish va bilimni baholab borish, o'qitishning "halollik vaksinasi"ga asoslangan tizimini joriy etish;

13) jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish

maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan tizimli choralarga qaramasdan, budjet mablag'laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlarini ajratish, ishga qabul qilish kabi yo'nalishlarda korrupsiya holatlari saqlanib qolmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda qurilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va davlat xaridlari sohalarini tartibga soluvchi 226 ta qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilgan va uning natijasiga ko'ra, ushbu hujjatlarning 75 tasida 302 ta korrupsiyaviy omillar aniqlangan. Shuningdek, milliy qonunchiligimizda korrupsiyaviy jinoyatlar toifalari aniq emas. Biz, ko'pincha, pora berish va pora olish va shu kabi boshqa jinoyatlarni korrupsiyaviy jinoyat deb baholaymiz. Vaholanki, yuqorida sanab o'tilganidek, to'g'ridan-to'g'ri moddiy manfaatdorlik bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar ham korrupsiyaviy bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda Oliy Majlis palatalari tomonidan Jinoyat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Shuningdek, yangi Jinoyat kodeksi loyihasida uni "korrupsiyaga oid jinoyatlar" degan yangi atama bilan to'ldirish va unda korrupsiyaviy jinoyatlarni aniq moddalari va bandlarini ko'rsatish taklif etilmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yangi vazifalar

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida korrupsiyaga moyil bo'lgan soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiya omillarining oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadlaridan biriga aylandi. Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda "Korrupsiyasiz qonunchilik" tamoyili hayotga tatbiq etilmoqda, inson omili ta'sirini va uning turli davlat xizmatlarini ko'rsatishga aralashuvini kamaytirish

choralari ko'rilmoqda, korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda.

"Transparency International" xalqaro tashkilotining 2021-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksida mamlakatimiz o'z o'rnini 6 pog'ona yaxshilab, 180 ta davlat ichida **140-o'rinni** egalladi va so'nggi besh yilda 17 pog'ona yuqoriladi. Tashkilot hisobotida O'zbekiston Markaziy Osiyoda o'rnak bo'layotganligi va so'nggi 5 yilda eng barqaror o'sish ko'rsatkichiga erishgan jahondagi 6 ta davlatdan biriga aylangani alohida ta'kidlangan. Shubhasiz, indeks natijalari mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish ortga qaytmas tus olgani, ushbu illatga qarshi amaliy va ta'sirchan choralar ko'rilayotganidan dalolat beradi.

Davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik bazasi takomillashtirildi. Davlat xaridlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasi bo'lgan maxsus axborot portali (www.xarid.mf.uz) tashkil qilindi. Amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida 5,8 trillion so'm tejaldi. 2022-yilning 1-yanvaridan boshlab to'liq elektron xaridlar yo'lga qo'yildi.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko'plab sohalarda korrupsiya va suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan **Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining** 83- va 84-maqsadlari bevosita O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati samarasini quyidagi yo'nalishlarda yanada kuchaytirishni nazarda tutadi:

- davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish;
- korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish;
- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

– korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

– jamoatchilik nazoratini olib borishni qo'llab-quvvatlash;

– korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish;

– aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish;

– normativ-huquqiy hujjatlarning "korrupsiyadan xoli qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta'minlash.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining jami 8 ta bandi bevosita korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha ta'lim-tarbiya va targ'ibot chora-tadbirlarisiz yetarlicha samara bermaydi. Jumladan,

sudyalar, prokurorlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini korrupsiyaga qarshi qonunlarni qo'llash va inson huquqlari bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish muhim. Shunday tadbirlar Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz tomonidan amalga oshirilmoqda. Markazda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbar-xodimlarining inson huquqlari sohasidagi malakasini oshirish bo'yicha doimiy treninglar o'tkazilib kelinmoqda. Bu treninglarda shu kunga qadar 1500 nafardan ortiq sudyalari, prokurorlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlar o'qitildi.

Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish ushbu sohadagi qonunchilikni hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, davlat organlari va davlat xizmatchilari faoliyatining oshkoraligini kengaytirish bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish va inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha ta'lim, targ'ibot va inson huquqlariga rioya qilish madaniyatini kuchaytirish tadbirlarini yanada keng targ'ib qilishni ham talab qiladi.

DAVLAT SIYOSATI

O'ZBEKISTON KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING YANGI BOSQICHIGA QADAM QO'YMOQDA

Akmal BURXANOV*



* Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori

Annotatsiya: 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari hamda uning mantiqiy davomida bo'lgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Agentlikka yuklatilgan vazifalar ijrosi yuzasidan ma'lumot berilgan

Yuborilgan: 2022-yil 31-yanvar

Qabul qilingan: 2022-yil 11-fevral

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-mart

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Burxanov, A. 2022. O'zbekiston korruptsiyaga qarshi kurashishning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 9–11. DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol2-iss1-pp9-11>

Bugungi zamonda vaziyat daqiqa sayin o'zgarib bormoqda. Ushbu jarayonda maqsadlar ustuvorligini to'g'ri belgilash va maqbul qarorlar qabul qilish eng murakkab vazifalardan biridir.

O'zbekiston ham ochiqlik siyosatini tanlashi natijasida, o'zgarishlarni barcha davlatlar bilan bir vaqtning o'zida qabul qilmoqda va global jarayonlarning bevosita ishtirokchisiga aylanmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosi bo'lgan, xalqning fikr va mulohazalari hamda takliflari asosida shakllantirilgan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalar hayotga izchil tadbir etildi.

Xususan, Harakatlar strategiyasida belgilangan 320 ta bandning ijrosi doirasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari qabul qilindi. E'tiborli jihati – mazkur sa'y-harakatlarni, o'zgarishlarni har bir fuqaro o'z hayotida his qila boshladi.

Bu kabi islohotlarning uzviy davomi sifatida 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu hujjat ishlab chiqilishida xalqimiz faol ishtirok etdi va o'z taklif va mulohazalarini bildirib o'tdi.

Taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo'nalish bo'yicha **"Inson qadri uchun – 100 ta maqsad"** belgilab olingan.

Korruptsiyaga qarshi kurashish ham ushbu ustuvor maqsadlar qatorida alohida qayd etilgan bo'lib, bu borada ham boshlangan

islohotlar izchillik bilan davom ettirilishi bilan birga, yangi bosqichga ko'tarish vazifasi qo'yilgan. Jumladan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini **"fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish"** tamoyili asosida transformatsiya qilish, ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish, korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir vazifalar yuklatilgan.

Masalan, **10-maqsadda davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etishda** korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini takomillashtirish vazifasi belgilangan.

Ma'lumki, korrupsiyaviy holatlarning aksariyati ishga kirish va lavozim pog'onalaridan o'sish jarayonlarida yuz beradi. Shu boisdan, ishga kirish tizimidagi shaffoflikni ta'minlash bo'yicha boshlangan ishlarni yakuniga yetkazib, barcha jarayonlarni ochiqligini ta'minlashimiz lozim.

Ushbu yo'nalishning uzviy davomi sifatida **83-maqsad, ya'ni davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish** belgilangan.

Ya'ni, davlat xizmatchisi korrupsiyaviy holatning asosiy subyektidan biri ekan, unga halollikni singdirish, uning xizmat faoliyatida fuqarolar bilan to'g'ridan to'g'ri munosabatni cheklash hamda shaffoflashtirish lozim bo'ladi.

Bu borada asosiy vazifa etib davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish vazifasi yuklatildi. Buning uchun, avvalo, qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish va davlat xizmatida qarorlar qabul qilish bilan bog'liq har qanday jarayonlarning ochiqligini ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish zarur.

Bu borada muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha ochiq ma'lumotlarning doirasini yanada kengaytirish va mazkur

ma'lumotlardan to'siqlarsiz foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Agentlik tomonidan mazkur jarayonda **birinchidan**, ochiq ma'lumotlarning doirasini yanada kengaytirish, **ikkinchidan**, mazkur ma'lumotlardan to'siqlarsiz foydalanish mexanizmlarini yaratishga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, barcha davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik darajasini 84 ta baholash mezonini qamrab olgan 8 ta indikator bo'yicha baholab borish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligini baholab borish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Shu bilan birga ochiq ma'lumotlar to'plamini pasportlash tartibini joriy etish, qayta aloqa tizimining samaradorligini o'rganish va baholash tizimini joriy qilish, hududiy davlat boshqaruvi organi tomonidan ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning namunaviy shakllarini ishlab chiqish belgilanmoqda.

Albatta, korrupsiyaga qarshi kurashishda **preventiv choralar** ya'ni tarmoqlar va sohalar miqyosida korrupsiyani oldini olishga qaratilgan mexanizmlar va **aholini ushbu jarayonga keng jalb etish** muhim ahamiyatga ega. Ushbu masalalar strategiyaning **84-maqsadida** o'z aksini topdi.

Bu vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan **sun'iy intellekt** texnologiyalarini joriy etish lozimligi qayd etilgan. Ma'lumki, Agentlik tomonidan xalqaro tashkilotlar, davlatlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. 2021 – yilda Yevropa davlatlariga amalga oshirilgan ishchi tashriflarda bu kabi texnologiyalar juda yaxshi samara berayotgani o'rganib kelindi.

Ushbu maqsadning yana bir katta yo'nalishi – korrupsiyaga qarshi kurashishda **fuqarolik jamiyati institutlari** bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Bunga alohida e'tibor berilgani ham bejiz emas. Chunki, korrupsiyaga murosasiz fuqarolar, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari qatlamini shakllantirmas ekanmiz, yuqorida amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlarimiz yetarli darajada samarasini bermaydi.

Bu borada OAV vositalari vakillarini ushbu jarayonga kengroq jalb etish va ularning bu sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, **aholi va davlat xizmatchilarining** korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi **bilimlarini uzluksiz oshirish** tizimini joriy qilish belgilangan.

Bu jarayonga ham zamonaviy usullar asosida yondoshish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun hamkor tashkilotlar bilan birgalikda **"Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiya"**sini joriy etish ustida ish boshlandi.

Ushbu akademiya onlayn platforma ko'rinishida bo'ladi va davlat xizmatchilari uchun hamda aholi uchun maxsus kurslardan iborat bo'ladi. Jumladan, bazaviy (xususiy sektor vakillari, fuqarolar va yoshlar) hamda maxsus chuqurlashtirilgan (rahbar, xodim, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (komplayens xizmati) xodimi, ichki audit xizmati, kadrlar bo'limi, ichki xavfsizlik va.h.k.) shakllarda tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, ushbu kurslar **barcha uchun ochiq bo'lib**, istalgan fuqaro (bepul) korrupsiyaga oid bilimlarini mustahkamlashi va imtihondan o'tkazib olish bo'yicha imkoniyati yaratiladi. Bu orqali aholi va davlat xizmatchilarining sohaga doir huquqiy bilim va ongini yuksaltirish bo'yicha keng qamrovli tizim joriy qilinadi hamda kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlarga maxsus sertifikatlar taqdim etiladi.

Muxtasar qilib aytganda, yuqoridagi vazifalarning barchasi Strategiyaning inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish kabi yo'nalishlarini hayotga to'la tatbiq etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Bizning oldimizda turgan **asosiy vazifa** esa, ushbu maqsadlarni hayotga tatbiq etayotganimizda ularning barchasini, xalqimiz o'z hayotida, bugungi kunida xis qilishiga sharoit yaratadigan darajada amalga oshirish lozim bo'ladi.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

QONUNCHILIK

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKIOTLARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ISHLARINING SAMARADORLIGINI REYTING BAHOLASH TIZIMI JORIY ETILMOQDA



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarori bilan 2022 yil 1 martdan vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida (keyingi o'rinlarda – davlat tashkilotlari deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash (keyingi o'rinlarda – reyting baholash) tizimini joriy etish nazarda tutilgan.

Reyting baholash tizimining joriy etilishi davlat organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarining samaradorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bu esa, o'z navbatida, korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishda, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etishda tegishli choralar ko'rilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, davlat organlari rahbarlarining mas'uliyati oshishiga xizmat qiladi.

Reyting baholash natijalariga ko'ra:

- korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi qoniqarli deb topilgan davlat organlariga samaradorlikni yanada oshirish bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tavsiyalar kiritiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi qoniqarsiz deb topilgan davlat organlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi. Har chorakda yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlar dasturida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi bo'yicha tegishli davlat organi rahbarining hisoboti O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashida eshitiladi.

КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ ИШЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ РЕЙТИНГ БАХОЛАШ ТИЗИМИ:

- Рейтинг баҳолаш **5 та йўналишдаги индикаторларга** асосланади
- Баҳолаш **"E-Anticor.uz"** электрон платформаси орқали ташкил этилади
- Дастлаб эксперимент тариқасида **26 та, 2022 йил 1 июлдан бошлаб** эса барча давлат ташкилотларига татбиқ этилади
- Баҳолаш натижаларининг ҳолислигини текшириш учун **Рейтинг баҳолашни мустақил амалга оширувчи экспертлар гуруҳи** шакллантирилади
- Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлиги **0 баллдан 100 баллгача** баҳоланади
- Фаолият самарадорлиги **"яхши", "қоникарли"** ва **"қоникарсиз"** тоифаларга ажратилади

Bundan tashqari, qaror bilan:

- davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash nizomi;

– davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Sinov natijalariga ko'ra, "E-Antikor.uz" elektron platformasi takomillashtirilib, keyinchalik barcha davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyat samaradorligini reyting baholash uchun qo'llanilishi rejalashtirilgan.

Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash nizomini ishlab chiqishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlar inobatga olindi, uning ishlab chiqilishida Janubiy Koreya, Malayziya, Vyetnam, Litva, Ruminiya, Moldova kabi xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasidan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN PREZIDENT QARORI IMZOLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-sonli qarorida quyidagilar nazarda tutilgan.

I) Agentlikning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibining umumiy qoidalari (nizomning maqsadi va vazifalari, Agentlik hamkorlik qiladigan huquqni muhofaza qiluvchi organlar doirasi, hamkorlik yo'nalishlari va shakllari, o'zaro hamkorlikni amalga oshirishda Agentlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlari);

II) korrupsiyaning oldini olish sohasida yagona davlat siyosati borasidagi o'zaro hamkorlik (huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Agentlikka yuboradigan ma'lumotlari, Agentlikning sud hujjatlarini ko'rib chiqish vakolatlari, ko'rib chiqilayotgan ishlar to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish tartibi);

III) korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan hamkorlik (jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi, ishlarni vakolatli organlarga o'tkazish);

IV) budjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlardan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari bo'yicha qonunbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni o'rganish sohasidagi hamkorlik (mazkur sohadagi hamkorlikni amalga oshirishda Agentlikning vakolatlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning majburiyatlari);



V) normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi sohasidagi o'zaro hamkorlik (normativ-huquqiy hujjatlar yoki ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish, mazkur sohada ishchi guruh tuzish tartibi);

VI) yakuniy qoidalar (axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, nizomning ijrosini tahlil qilish).

O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

HUQUQ USTUVORLIGINI TA'MINLASH – KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUHIM OMILI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2021-YIL 14-YANVARDAGI "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQ USTUVORLIGINI TA'MINLASH HOLATINI ANIQLASHNING SAMARALI MEXANIZMINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI PQ-4951-SONLI QARORI QABUL QILINDI.

Mazkur qarorning asosiy maqsadi hududlarda qonun ustuvorligi va qonuniylikka rioya qilishning samarali mexanizmlarini yaratishni ta'minlashdan iborat bo'lib, unda ushbu maqsadga erishish uchun qabul qilingan qonun hujjatlari ijrosini o'rganish va baholash, aniqlangan huquqiy kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish zarurligi ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, qaror bilan qonun ustuvorligi indeksini hududlar kesimida shakllantirish uslubiyati tasdiqlanib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tumanlar (shaharlar) bo'yicha ushbu indeksni aks ettiruvchi 32 ta indikatorlar belgilandi.

Qarorda mazkur indikatorlar bo'yicha 182 ta baholash mezonlari o'z aksini topgan bo'lib, shundan 111 tasi statistik ma'lumotlar va 71 tasi sotsiologik so'rov natijalariga asosan shakllantiriladi.

Ta'kidlab o'tish joizki, hududlarning qonun ustuvorligi indeksi statistik ko'rsatkichlar hamda joylarda ma'lum yo'nalishlar bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari asosida aniqlanadi.

Birinchi yo'nalish – qonun hujjatlariga rioya qilinishi. Mazkur yo'nalishda hududlarda qonunlar va qonunosti hujjatlari ijrosiga, ma'muriy tartib-taomillarga rioya qilish va mulkiy huquqlarning daxlsizligini ta'minlash holatiga e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi yo'nalish – fuqarolarning huquq va erkinliklarining ta'minlanishi. Ushbu yo'nalishni tahlil qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qiynoqlar va asossiz ushlab turish holatlari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining huquqlarini amalga oshirishda to'siqlarning mavjud emasligi, fikr va so'z erkinligidan foydalangan fuqarolar va jurnalistlarga bosim o'tkazish, shaxsiy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashish holatlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligi va asosiy mehnat huquqlarining ta'minlanganligi e'tiborga olinadi.

Keyingi yo'nalish odil sudlov va sud qarorlarining ijro etilishi bo'lib, quyidagi indikatorlar asosida baholanadi: aholining sudlar orqali o'z huquqlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatidan foydalanishi, sud qarorlari xolisligidan qanoatlanishi; aholining sud organlarida korrupsiya alomatlarini mavjudligi haqidagi tasavvurlari; sudlarning davlat organlari ta'siridan xolligi; sudlar tomonidan protsessual muddatlarga rioya etilishi; sud qarorlarining lozim darajada ijro etilishi.

To'rtinchi yo'nalish huquq-tartibot o'rnatilganligi va xavfsizlikning ta'minlanganlikdan iborat bo'lib, hududlarda jinoyatchilik darajasi va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi, hududdagi jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi samarali chora ko'rilishi, fuqarolarning adolatni "shaxsan" qaror toptirishga moyilligi indikatorlari asosida baholanadi.

Beshinchi yo'nalish mahalliy ijro organlari faoliyatining samarali nazorat qilinishi bo'lib, quyidagi indikatorlar asosida baholanadi: Xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokimliklar faoliyatining nazorat qilinishi, mahalliy ijro organlari qarorlari bilan bog'liq nizolarning ma'muriy sudlarda ko'rib chiqilishi, mahalliy ijro organlari mas'ullarining sodir etgan huquqbuzarliklari uchun javobgarlikning ta'minlanishi, mahalliy ijro organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati.

Qarordagi **oltinchi yo'nalish** – korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini tahlil qilishda ijro organlari mansabdor shaxslari tomonidan mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining mavjudligi, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining mavjudligi, ijtimoiy sohada korrupsiyaning tarqalganlik darajasi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaning tarqalganlik darajasi, qarindosh-

urug'chilik, oshna-og'aynigarchilik va mahalliychilik unsurlarining namoyon bo'lish holatlari inobatga olinadi.

So'nggi yo'nalish – hokimiyat institutlarining shaffofligi yo'nalishi mahalliy davlat hokimiyati organlarining ochiqligi, mahalliy ijro organlari tomonidan fuqarolarning axborot olish huquqi ta'minlanganligi, fuqarolarning mahalliy darajadagi qarorlarni qabul qilish jarayonidagi ishtiroki, mansabdor shaxslar xatti-harakatlari

ustidan shikoyat berish mexanizmlaridan samarali foydalanish indikatorlari asosida baholanadi.

Bundan tashqari, qarorga muvofiq hududlarning huquq ustuvorligi indeksini aniqlash maqsadida "Huquq ustuvorligi" avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishga tushirildi.

Ushbu qaror tufayli qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi samaradorligini tekshirish imkoniyati yaratildi. Qonun ustuvorligini ta'minlash samaradorligini tekshirishning ushbu mexanizmi fuqarolik jamiyatini takomillashtirish, inson huquqlari himoyasini ta'minlashga va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish orqali korrupsiya omillarini bartaraf etishga xizmat qilishi lozim

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA
PARLAMENTNING ROLI

Jahongir SHIRINOV *



* Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi
Korrupsiyaga qarshi
kurashish va sud-
huquq masalalari
qo'mitasi raisi

Annotatsiya: Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 5 ta asosiy faoliyat yo'nalishlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Yuborilgan: 2022-yil 31-yanvar

Qabul qilingan: 2022-yil 11-fevral

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-mart

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Shirinov, J. 2022. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlamentning roli. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 16–19.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol2-iss1-pp16-19>

Korrupsiya lotincha “corrumpere” so'zidan olingan bo'lib, “buzmoq” degan ma'noni bildiradi.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishni anglatadi.

Yurtimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Sohibqiron Amir Temur o'z saltanatida davlat xizmatchilarining maoshini oshirib borishi barobarida, korrupsiyaga qo'l urgan shaxslarni qattiq jazolagan.

U korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga intilgan. Aholi vakillari bilan suhbatlar olib borib, ulardan joylardagi rahbarlarning adolatsizlikka yo'l qo'yishi, ta'magirlik qilishi holatlarini aniqlagan hamda ularni xolislarning ko'z o'ngida jazolagan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya dunyo iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltiradi. Bu esa dunyo yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil etadi.

Korrupsiya mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga quyidagicha salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

SIYOSIY SOHADA	IQTISODIY SOHADA	IJTIMOY SOHADA
Umummilliy manfaatdan ayrim guruhlar manfaatining yuqori qo'yilishi	Investitsion muhitning buzilishi, kichik biznesning zarar ko'rish	Uyushgan guruhlarining paydo bo'lishi, ijtimoiy tengsizlik, kambag'allik
Xalqning davlatga bo'lgan ishonchining pasayishi	Davlat resurslarining maqsadsiz taqsimlanishi, narxlarning soxta oshirib ko'rsatilishi	Davlatning ijtimoiy muammolarni hal eta olmasligi
Demokratik prinsiplar yo'qolishi, qonun ustuvorligi buzilishi, sudlar faoliyatining samarasizligi	Moliyaviy, iqtisodiy xavfning oshishi, yashirin iqtisodiyot, iqtisodiy raqobatning pasayishi	Ochiqchasiga huquqiy buzilishlar, jinoyatchilarning jazosiz qolishi

Bugungi kunda dunyoda korrupsiya turli shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ular jumlasiga:

- pora, mansabdor shaxsni “sotib olish”, “ustama haq” olish;
- davlat resurslarini o'zlashtirish, rastrata (kamomad);
- tanish-bilish yo'li bilan o'z yaqinlarini lavozimga tayinlash;
- davlat funksiyalarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;
- muayyan masalani hal etishda qimmatbaho sovg'alar berish va olish;
- davlat xizmatchisining biznesga noqonuniy “rahnamollik” qilishi;
- mansabini suiiste'mol qilgan holda fuqarolarda huquqini talab qilish istagini yo'qotish;
- boshqaruvda hiyla-nayrang (saylovlarni soxtalashtirish, ayrim guruh manfaati yo'lida adolatsiz qaror qabul qilish);
- sudning mustaqilligiga daxl qilish;
- sun'iy tanqislikni vujudga keltirish;
- siyosatchilarning xalqqa “yaxshi kishi bo'lib ko'rinishi” uchun o'z mavqeidan foydalangan holda qonunga xilof ravishda davlat xizmatlarini ko'rsatishi va h.k.

Lekin afsuski, milliy qonunchiligimizda korrupsiyaviy jinoyatlarning toifalari aniq emas. Biz, ko'pincha, pora berish va pora olish va shu kabi boshqa jinoyatlarni korrupsiyaviy jinoyat deb kelamiz. Vaholanki, yuqorida sanab o'tilganidek, to'g'ridan-to'g'ri moddiy manfaatdorlik bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar ham korrupsiyaviy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Shu sababli bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Bosh prokuratura

bilan hamkorlikda Jinoyat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Unga muvofiq, Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo'limini “Korrupsiyaga oid jinoyatlar” degan yangi atama bilan to'ldirish va unda korrupsiyaviy jinoyatlarni aniq moddalari va bandlari bilan ko'rsatish taklif etilmoqda. Qonun loyihasi bilan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun jazoni kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish muddatlari og'ir va o'ta og'ir korrupsiyaviy jinoyatlarga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilanmoqda.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning 2008-yilda BMT Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga qo'shilishi korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga zamin yaratdi.

Mamlakatimizda “korrupsiya” so'zi ishlatilgan 210 ta normativ-huquqiy hujjat mavjud. Albatta, ularning barchasida ushbu so'z korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida ishlatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (7-dekabr 2018-yil Konstitutsiyamizning 26 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishdagi ma'ruzada) taklifi asosida 2019-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi” tashkil etilgan.

Qo'mita korrupsiyaga qarshi kurashish borasida parlamentning asosiy vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib, 5 ta yo'nalishda ish olib boradi.

Uning faoliyatiga avvalambor, qonun ijodkorligi faoliyati kiradi. Qo'mita har yili korrupsiyaga qarshi kurashish hamda sud-huquq masalalariga oid **o'rtacha 40 ta** qonun loyihalarini olib chiqadi. Bu Quyi palata tomonidan har yili ko'rib chiqiladigan qonun loyihalarining **25-30 foizini** tashkil etadi.

Masalan, Qo'mita "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, 2021-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, davlat organlaridagi byurokratiyaning oldini olishga qaratilgan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi va boshqa qator qonunlarga mas'ul bo'lgan.

Bundan tashqari, Qo'mita **boshqa sohadagi qonunlarning ishlab chiqilishida ham ularda korrupsiyaviy normalar xavfining oldini olish nuqtai nazaridan** ishtirok etmoqda. Masalan, "Yer uchastkalarini ajratish va ulardan foydalanish, shuningdek, yerlarni hisobga olish va davlat yer kadastrini yuritish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning loyahasini tayyorlashda Qo'mita bevosita ishtirok etgan.

Qonun ijodkorligining ikkinchi yo'nalishi **bu qonunlarni korrupsiyaga sharoit yaratuvchi normalardan xoli qilishdir**. O'tgan davr mobaynida Qo'mita parlamentga taqdim etilayotgan qonun loyihalarida aniqlangan 40 dan ortiq korrupsiogen normalarni aniqlagan va ularni chiqarib tashlash yoki o'zgartirishga erishgan.

Bundan tashqari, Qo'mita tomonidan amaldagi qonunlar ham korrupsiyaga qarshi tahlil qilib borilmoqda. Masalan, Qo'mita amaldagi qonunlarda 10 dan ortiq korrupsiogen normalarni aniqlab, ular yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlagan va bu masalada tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash rejasiga kiritish choralarini ko'rgan.

Qo'mitaning **ikkinchi faoliyat** yo'nalishi bu parlament nazorati. Qo'mita o'tgan davr mobaynida 20 dan ortiq nazorat-tahlil tadbirlarini o'tkazgan.

Sog'liqni saqlash, qurilish va boshqa qator sohalarda bevosita joylarga chiqqan holda korrupsiyaning oldini olishga oid qonunlarning ijrosi o'rganilgan.

Tizimda korrupsiyaning oldini olish, komplayens nazorati samaradorligini oshirish, korrupsiyaga murossasiz madaniyatni shakllantirish maqsadida Davlat bojxona qo'mitasi, Sog'liqni saqlash, Adliya, Qurilish vazirliklari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarlarining axboroti eshitilgan. Eshituv yakunlari bo'yicha tizimda korrupsiyaning oldini olish, davlat xizmatlarini ko'rsatishni raqamlashtirishni kengaytirish va boshqalarni o'z ichiga olgan **Qo'mita qarorlari chiqarilib, ijroga qaratilgan**.

Eshituv yakunlari bo'yicha ayrim **korrupsiyaga sharoit yaratuvchi idoraviy-me'yoriy hujjatlarni bekor qilishga erishilgan**. Masalan, Qo'mita taklifiga asosan, Davlat bojxona qo'mitasi raisining 2021-yil 25-fevraldagi 01-02/8-11-son buyrug'iga binoan, "Tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun bojxona yig'img'larini undirish tartibi" (AV № 925, 2000-yil 11-may) hamda ushbu hujjatga aloqador yana 4 ta hujjat o'z kuchini yo'qotgan.

Uchinchi faoliyat yo'nalishi bu joylarda muloqot o'tkazish. Davlat rahbarining tashabbusi bilan taklif etilgan ushbu usul asosida deputatlar joylarga chiqib, jamoatchilik vakillari, tadbirkorlar, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatlar bilan muloqot o'tkazib kelmoqdalar, ular orasida anonim ijtimoiy so'rovlar o'tkazilmoqda. Muloqot davomida hududda korrupsiyaning oldini olish, odil sudlovni ta'minlash borasida ko'tarilgan masalalar xalq deputatlari mahalliy kengashlari sessiyalarida **ko'rib chiqilgan**.

To'rtinchi faoliyat yo'nalishimiz turli kollegial organlar ishida ishtirok etishdir. Qo'mita a'zolari Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi

huzuridagi Jamoatchilik kengashini tuzish bo'yicha maxsus komissiya, Jinoyat va Jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish komissiyasi, Sudyalar oliy kengashi, Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturi loyihalari ishlab chiqish bo'yicha turli komissiyalar, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va boshqa kollegial organlar tarkibida faoliyat yuritishmoqda. Masalan, Qo'mita a'zolari Jizzax viloyatida Korruptsiyaga qarshi kurashish mahalliy kengashlari faoliyatini tashkil etish, ularga korruptsiyaning oldini olishda ma'muriy preventiv usullardan foydalanish yuzasidan uslubiy ko'mak berishgan.

Beshinchi faoliyat yo'nalishi – bu korruptsiyaga qarshi targ'ibot. O'tgan davr mobaynida Qo'mita a'zolari televideniye, radio, bosma OAV, internet va ijtimoiy tarmoq sahifalarida **5 mingdan** ortiq chiqish qilishgan. Shuningdek, Qo'mita tomonidan 20 ga yaqin konferensiya, seminar va davra suhbatlari o'tkazilgan. Qo'mita a'zolari korruptsiyaga qarshi xalqaro forumlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etishgan.

Bundan tashqari, Qo'mita **ilmiy hamjamiyat vakillari** bilan sohaga oid ilmiy-amaliy takliflarni ham doimiy muhokama qilib boradi. Olimlar tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida Qo'mita tomonidan turli qonun loyihalari takomillashtirilgan.

Albatta, biz "korruptsiyaga qarshi immunitet"ni hosil qilish uchun nafaqat "korruptsiyaviyer", balki uning atrofini ham "tozalashimiz", aniqrog'i, korruptsiyaga shart-sharoit yaratuvchi omillarni yo'qotishimiz lozim.

Bizningcha, korruptsiyaga qarshi kurashish uchun quyidagi **4 ta ta'sir vositalari baravar qo'llanilishi kerak.**

Dastlab, **halol ishlashni rag'batlantiruvchi ta'sir.** Bunda:

- munosib maosh;
- korruptsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish;
- halol insonni yuqori lavozimlarga tayinlash prinsipi tatbiq etiladi.

Ikkinchidan, **"to'g'on vositasi", ya'ni korruptsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni to'suvchi ta'sir.** Bunda:

- davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini qisqartirish;

- huquqbuzarliklarni elektron qayd etish;
- lavozimga ochiq tanlov asosida tayinlash;
- davlat xizmatchilarining o'z daromadini deklaratsiya qilishi;
- davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash;
- qonunchilikda korruptsiogen normalarni bartaraf etish;
- byurokratik to'siqlarni bekor qilish;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish;
- sudlarning mustaqilligini ta'minlash muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, **korruptsiyaga qarshi ma'rifiy ta'sir.** Bunda:

- korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish;
- diniy ulamolarimiz tomonidan ham korruptsiyaga qarshi diniy-ma'rifiy da'vat olib borish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, **korruptsiyaga qarshi nazorat tizimi.** Bunda:

- korruptsiyaga qarshi kurashni muvofiqlashtirgan holda olib borish;
 - korruptsiya uchun qattiq jazo va javobgarlikning muqarrarligi;
 - korruptsiya natijasida olingan mol-mulkni musodara qilish;
 - korruptsiyaviy jinoyat sodir etganlarni davlat xizmatiga qabul qilmaslik;
 - korruptsiya holatlarining "latent" bo'lib qolishining oldini olish;
 - korruptsiya yo'li bilan chiqarilgan qarorlarning bekor qilinishi;
 - kuchli jamoatchilik nazorati;
 - mansabdor shaxslarning xalq oldida hisobdorligi;
 - korruptsiyani fosh etish borasida professional tadqiqotlar olib borishga qodir bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda "jurnalistik tekshiruv"lari;
 - "korruptsiyaga qarshi ichki audit" tizimining samarali ishlashi talab etiladi.
- Umuman olganda, korruptsiyaga qarshi kurashish bu faqat davlat organlarining ishi emas, balki bu borada jamoatchilik vakillari ham birdek harakat qilsagina, maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

MA'NAVIYAT BO'LMAGAN JOYDA ADOLAT BO'LMAYDI

Xolmo'min YODGOROV*



* O'zbekiston
Respublikasi Sudyalar
oliy kengashi raisi

Annotatsiya: O'tgan besh yilda sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan islohotlar, sudyalarni lavozimga tayinlash jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish hamda sudyalarning xulq-atvorida korrupsiyaga murossasizlikni singdirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida yoritilgan.

Yuborilgan: 2022-yil 31-yanvar

Qabul qilingan: 2022-yil 11-fevral

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-mart

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Yodgorov, X. 2022. Ma'naviyat bo'lmagan joyda adolat bo'lmaydi. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 20–22.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol2-iss1-pp20-22>

“Korrupsiya” atamasiga sharh ham, izoh ham shart emas. Taraqqiyotning kushandasi bo'lgan mazkur illat haqida jamoatchilik yetarlicha tasavvurga ega. Chunki bu balo kirib bormagan sohaning o'zi qolmagani rost. Sud tizimi jamiyatning ajralmas bo'lagi ekan, uning ham bu illatdan xoli emasligi o'z-o'zidan ravshan.

Aravani otdan oldin qo'yib bo'lmaganidek, har qanday illatga qarshi yetarlicha huquqiy bazasiz samarali kurashib bo'lmashligi ayon. Chunki korrupsiyaga, birinchi navbatda, qonunchilikdagi bo'shliqlar va huquqiy hujjatlardagi bir-birini inkor qiluvchi normalar imkoniyat yaratadi.

O'tgan besh yilda bu borada qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, “Sudlar to'g'risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilingan bo'lsa, “O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida”gi Qonunga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Prezidentimizning 2020-yil 7-dekabrdagi “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni esa tizimdagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish, mazkur illatning barvaqt oldini olishning ikkita muhim omili bor: ochiqlik va shaffoflik. Qabul qilingan huquqiy hujjatlarda ayni ushbu ikki omil ustuvor ahamiyat kasb etgani bilan ham e'tiborlidir. Zotan, ochiqlik va shaffolik inson omilini cheklashni talab qiladi. Inson omili cheklangan joyda xolislik ustuvor bo'lishi – isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Qayd etilgan Farmonda sudyalik lavozimlariga tanlash va tayinlashda inson omilini cheklashga qaratilgan qator yangi

tartiblar belgilandi. Masalan, sudyalik lavozimlariga munosib kadrlarni tanlash va tayinlashni ochiq tanlov va muqobillik asosida, eng muhimi, axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Natijada, inson omili keskin cheklanib, tanlov jarayoni ochiq va shaffof o'tishi ta'minlanmoqda. Tanlovni bevosita va bilvosita (onlayn tarzda) kuzatib borish imkoniyati yaratildi. Bu esa munosib nomzodlarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sudyalar faoliyatini elektron reyting orqali shaffof baholash tizimi yo'lga qo'yilgani ham katta yangilik. Ma'lumki, shu paytgacha sudyalarning faoliyati har ikki yarim yilda o'rganilib, tegishli xulosa qilinardi. Va bu inson omili yordamida (ya'ni malaka hay'atlari a'zolari tomonidan) amalga oshirilar edi. Elektron reytingda esa bu vazifa inson omilisiz amalga oshiriladi.

Sudyalik lavozimiga nomzodlar va sudyalarning psixologik portreti bo'yicha kasbga munosibligini baholashga ko'maklashuvchi elektron dastur ishga tushirildi. Mazkur psixologik test yordamida nomzod va sudyalarning qat'iylik, bosiqlik, jizzakilik, stressga chidamlilik, korrupsiyaga moyillik hamda boshqa psixologik xususiyatlari aniqlanadi. Psixologik test natijasi professional psixolog tomonidan o'rganib chiqilib, tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan xulosa tuziladi. Mazkur xulosa nomzodning sudyalik lavozimiga tayinlanishida alohida e'tiborga olinmoqda.

Tizimda korrupsiyaga yo'l qo'yilgan har bir holat bo'yicha Kengash tomonidan xizmat tekshiruvni o'tkazish, ushbu holat sodir bo'lishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va uni bartaraf etish yo'lga qo'yildi. Bu ham, o'z navbatida, korrupsiyaning barvaqt oldini olishda samarasini bermoqda.

Xullas, qayd etilgan yangi tartib va qoidalar sudyalik lavozimiga tayinlashga oid bo'lsa, nomzod shu bosqichga yetib kelgunga qadar ozmuncha chig'iridandan o'tmaydi. Bu o'rinda gap sudyalikka nomzodlarni atroflicha o'rganib, muayyan xulosa qilish jarayoni haqida emas, balki sudyalik lavozimiga

nomzodlarni tayyorlashga doir yangi tartiblar haqida bormoqda.

Davlat rahbarining bundan uch yil avval, ya'ni 2019-yilning 6-yanvar kuni PQ-4096-sonli qarori qabul qilinganligidan jamoatchilik yaxshi xabardor. Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalari va sud apparati xodimlarini qayta tayyorlashga, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirishga oid chora-tadbirlar tartibga solingan mazkur qaror sabab amaliyotga ozmuncha yangilik kiritilgani yo'q. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzurida Sudyalar oliy maktabi tashkil etildi, uning tarkibiy tuzilmasidan to asosiy faoliyat yo'nalishlarigacha tubdan yangilandi. Qarorda sudyalik lavozimiga tayinlanish yoshi (35 yosh) aniq belgilandi. Shuningdek, 2020-yil 1-sentabrdan boshlab, sudyalik lavozimlariga faqat sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kurslarida o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan shaxslar tayinlanishi ham yangi qoida sifatida kiritildi.

Qayd etilgan yangi tartib va qoidalar sudyalik lavozimiga nomzodlarning o'z ustida ko'proq ishlashiga turtki berishi o'z-o'zidan ayon. Shuningdek, mazkur o'zgarishlar ularda korrupsiyaga nisbatan murosasizlikni yanada shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Sudyalik lavozimlari nomzodlarni tayyorlashda ma'lum metodika, ilg'or ta'lim tajribalaridan samarali foydalanish, qabuldan tortib, oraliq imtihonlardan yoinki bitiruv ishlarigacha bo'lgan jarayonlarda inson omili maksimal cheklangani, bu, o'z navbatida, ijobiy natijalarini berayotgani e'tirofqa loyiq, albatta. Biroq, nomzodlarni tayyorlash jarayonida ularda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik ruhini yanada shakllantirishda milliy qadriyatlar, yanada aniqroq aytsak, e'tiqod va ruhiy tarbiya omillaridan ham samarali foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi. Chunki ayni ushbu omil har qanday illatga, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashda muhim mezon hisoblanadi. Bu borada Kengash huzuridagi Sudyalar oliy maktabida olimlar, din ulamolari, imom-xatiblar ishtirokida ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib,

ular da pora olish qonunan jinoyat, shariat bo'yicha haromligi uqtirib kelinmoqda.

Adolat va ma'naviyat – o'zaro bog'liq tushunchalar, shu bois ham Davlat rahbari: "Ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi", deya qayd etgan. Shunga ko'ra, sudyalari, yurist kadrlarni tayyorlash va sudyalik lavozimiga tayinlashda bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Achchiq tajribalardan kelib chiqilsa, har qanday illatga qarshi quruq gap, faqat ma'rifiy tadbirlar bilan kurashib bo'lmashligini hayotning o'zi ko'rsatib qo'ydi. Buning uchun samarali ta'sir vositalaridan unumli foydalanish lozim.

O'tgan yili Kengash tashabbusi bilan "Pushaymon" qisqa metrajli filmi tasvirga olindi (film da korruptsiyaga qo'l urgan sobiq sudyaning fojiaiy taqdiri hikoya qilinadi). Joylarda ma'rifiy tadbirlar jarayonida mazkur film namoyish etilarkan, bunga nafaqat sudyalarning o'zi, balki ularning turmush o'rtoqlari ham taklif etildi. Nega? Bu ham ta'sirchan vositalardan biri, negaki inson kamolida ham, zavolida ham oilaning o'rn i katta. Shu bois, bunday ma'rifiy tadbirlar doirasini kengaytirish lozim.

Bundan tashqari, vaqti-vaqti bilan sudyalari va sudyalikka nomzodlarning jazoni ijro etish muassasalariga tashrifini tashkil etish ham yaxshi samara beradi, degan fikrdaman. Chunki mas'ul mansabdorlarning korruptsiyaviy jinoyati uchun javobgarlikka tortilganini eshitish boshqa, ularni muassasada jazoni qanday ijro etayotganini ko'rish – umuman boshqa narsa. Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal, hikmati bejiz emas. 2021 yilda bir marotaba sudyalarning jazoni ijro etish muassasalariga tashrifi uyushtirildi. Kelgusida bunday chora-tadbirlarni ko'paytirish rejalashtirilmoqda.

Sud tizimida korruptsiyaning oldini olish, sudyalarni o'qitish va lavozimlarga tayinlashda korruptsiyaga nisbatan murosasizlikni singdirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni hali yetarli, deb bo'lmaydi.

Avvalo, bu boradagi ishlar sifati va samaradorligini yanada oshirish zarur. Bunda yetarli bilim va tajribaga, benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lgan kadrlarni izlab topish va

batafsil o'rganish tizimini yanada takomillashtirish talab etiladi. Shuningdek, sudyalikka nomzodlarning korruptsiyaga moyilligini aniqlash maqsadida Sudyalari oliy kengashi tomonidan yo'lga qo'yilgan maxsus psixologik testlarni Sudyalari oliy maktabi qabul imtihonlarida ham qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi. Sudyalari xulq-atvorining aksilkorruptsiyaviy standartlarini aniq belgilash ham bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur fikrning davomi sifatida sudyalarni kasbiy tayyorlashda va malakasini oshirishni tashkillashtirishda ularning aksilkorruptsiyaviy xulq-atvori standartlari bo'yicha o'quv soatlarini kiritish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish mexanizmini, intizomiy javobgarlikka tortishning protsessual kafolatlarini va bu borada sudyalari malaka hay'atlari vazifalari va funksiyalarini takomillashtirish haqida bosh qotirish fursati yetdi.

Gap korruptsiya, uning barvaqt oldini olish haqida ketar ekan, doimiy asosda sudyalari va sud apparati xodimlari tomonidan aksilkorruptsiyaviy normalarga rioya etilishiga doir ishlarni izchil tahlil qilib borish ham kechiktirib bo'lmash vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, o'zi adolat o'rnatishi lozim bo'lgan sudyalari orasida tanish-bilishchilik evaziga yoxud ma'lum haq – pora – manfaat evaziga ish hal qiladigan va shu orqali adolatsizlikka yo'l qo'yuvchilarga o'rin yo'q. Kengashning asosiy vazifalaridan biri ham tizimni halol, pok va adolatli kadrlar hisobiga to'ldirishdan iboratdir.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KORRUPSIYANING
OLDINI OLISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN
ISHLAR

Gulnora RAXIMOVA*



*O'zbekiston
Respublikasi
Moliya vaziri o'rinbosari

Annotatsiya: Davlat xaridlari tizimida korrupsiyani oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va muammolarga to'xtalib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Yuborilgan: 2022-yil 31-yanvar

Qabul qilingan: 2022-yil 11-fevral

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-mart

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Raximova, G. 2022. Davlat xaridlari tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 23–25.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2-iss1-pp23-25>

Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, raqamlashtirish jarayonlarini jadal rivojlantirish orqali inson omili ishtirokini kamaytirish har qanday sohada aynan korrupsiyaning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning eng katta yutug'i sanaladi. Bugungi kunda mamlakatimizning har bir fuqarosi davlat budgetining kunlik xarajatlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'lib, bunda davlat xaridlarini amalga oshirishda keng raqobatni ta'minlash, mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, tadbirkorlar uchun qulay muhitning yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2021 yilda respublika bo'yicha jami **147,4 trln.** so'mlik davlat xaridlari amalga oshirildi. Bu esa **YAIMning 20,1 foizini** tashkil qiladi. Shundan qariyb **28 trln.** so'm qiymatdagi xaridlar (jami xaridlarning **20 foizi**) elektron savdolar orqali amalga oshirildi. Raqobatli xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish natijasida **5,8 trln.** so'm mablag'lar **iqtisod qilinishiga erishildi.**

Davlat xaridlari jarayonlarida inson omili ishtirokini kamaytirish hamda sohani raqamlashtirish maqsadida tanlash va tender savdolari 2022 yil 1 yanvardan **majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazilishi** yo'lga qo'yildi.

Davlat xaridlari sohasida davlat buyurtmachilarining javobgarligini kuchaytirish, ular tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etishini, sog'lom raqobatga asoslanmagan savdolarning tashkil etilmasligini hamda barcha tadbirkorlik subyektlariga teng imkoniyat yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga** davlat xaridlari

sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik, shu jumladan, xarid qilish tartib-taomillari turlarini belgilash va ijrochini tanlash shartlarini buzganlik uchun **javobgarlik belgilandi**.

Davlat xaridlari sohasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, davlat xaridlari ishtirokchilariga qulayliklar va keng imkoniyatlar yaratish orqali xarid qilish tartib-taomillarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga quyidagi mazmundagi asosiy yangiliklar kiritilgan:

– Qonun talablarining **strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalari, ya'ni yirik korporativ korxonalar xaridlariga** ham tatbiq etilishi;

– O'zbekiston Respublikasi **Hisob palatasiga davlat xaridlarni auditdan o'tkazish** va har yilning yakuni bo'yicha audit natijalarini ochiq axborot manbalarda e'lon qilib borish va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritish vakolati;

– xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar tarkibiga **O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi** kiritildi;

– davlat xaridlarida **korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi** moddasi qayta ko'rib chiqildi va yanada **takomillashtirildi**. Bunda davlat xaridlarida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik:

- insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta'minlash;

- monitoring olib borish va nazorat qilishning samarali tizimini yaratish;

- qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilishi holatlari bo'yicha ma'lumotlarni ochiq axborot manbalarida e'lon qilib borish asosida amalga oshiriladi;

– xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari va davlat xaridlari ijrochilariga o'zlarining **benefitsiar mulkdorlarini ochiqlash** majburiyati yuklatildi;

– davlat buyurtmachilariga davlat xaridlarini amalga oshirishda **affillanganlik** bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etib borish majburiyati yuklatildi;

– ishtirokchi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining **affillangan shaxsi** elektron

bozor, auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolari bo'yicha **bitta lotda ishtirok etishga haqli emasligi**;

– davlat xaridlari jarayonida ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchining vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yoki davlat buyurtmachisining yoki u tomonidan jalb qilingan **ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo'lgan hollarda** ishtirokchini davlat xaridlarida ishtirok etishga yo'l qo'yilmasligi sharti;

– tanlash va tender ishtirokchilari tomonidan **korrupsiyaga qarshi arizasini** taqdim etish to'g'risidagi majburiy talab kiritildi.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi vaqtda davlat xaridlari sohasida **"Korrupsiyasiz soha"** loyihasi amalga oshirilib kelinmoqda. Davlat xaridlari sohasida **"Korrupsiyasiz soha"** loyhasini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarning 28 banddan iborat **"Yo'l xaritasi"** tasdiqlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining yig'ilishlarida davlat xaridlari sohasida **"Korrupsiyasiz soha"** loyhasini amalga oshirish bo'yicha bajarilgan ishlar bo'yicha muhokamalar o'tkazilib kelinmoqda.

Bu borada:

– davlat xaridlari sohasiga oid qonunchilik hujjatlari **korrupsiyaga qarshi ekspertizadan** o'tkazildi;

– tegishli xalqaro moliya institutlari bilan kelishuvlar imzolangan bo'lib, bugungi kunda ushbu loyiha doirasida namunaviy xarid hujjatlari ishlab chiqildi;

– Moliya vazirligi O'quv markazida davlat boshqaruv organlari va ularning tizimdagi xodimlari hamda xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalar hamda boshqa tashkilotlar xodimlari uchun **malaka oshirish kurslari** tashkil qilindi.

Ma'lumot uchun: maxsus kurs bo'yicha hozirgi kunga qadar davlat buyurtmachilarining 6979 nafar xodimi malaka oshirish kurslarida qatnashdi.

– davlat xaridlari bo'yicha davlat buyurtmachilarining malakasini oshirish maqsadida **masofaviy ta'lim platformasi** yaratildi.

Bugungi kunda mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida bajarilishi lozim bo'lgan qator choralar mavjud bo'lib, xususan:

– raqobat mavjud bo'lgan hollarda asossiz ravishda istisno tariqasida yetkazib beruvchini aniqlash yoki to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish tashabbuslarini tanqidiy ko'rish;

– davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, affillangan shaxslarni elektron tizim orqali avtomatik tarzda aniqlash imkoniyatini yaratish choralarini ko'rish. Bunda Jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasi bilan davlat xaridlarining elektron tizimlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish orqali davlat xaridlari ishtirokchilarining affillangan shaxslarini elektron tizim orqali aniqlash mexanizmini joriy qilish;

– shuningdek, davlat xaridlarida ochiqlik va shaffoflikni yanada oshirish, raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida xaridlarni kompleks tahlil qilish, shu jumladan, ishtirokchilar, ularning soni, taklif etilayotgan narx, raqobat darajasi, sohalar va hududlar kesimidagi tahliliy ma'lumotlar, jumladan, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa ma'lumotlarni avtomatik tarzda tahlil qiluvchi tizimni (**Business intelligence**) joriy etish. Bu borada davlat xaridlari Markaziy axborot portalini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish;

– Markaziy axborot portalida xavfni boshqarish (**Risk management**), turli mezonlar bo'yicha monitoringni amalga oshirish (**Monitoring tools**) hamda BI (**Business intelligence software**) ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini joriy qilish ishlarini yakuniga yetkazish kabi masalalar shular jumlasidandir.

OAV MINBARI

KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI**Olimjon USAROV***

*O'zbekiston Jurnalistlari
ijodiy uyushmasi raisi

Annotatsiya: Korruptsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati, ularning davlat organlari bilan hamkorligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Yuborilgan: 2022-yil 31-yanvar

Qabul qilingan: 2022-yil 11-fevral

Nashr qilingan sana: 2022-yil 25-mart

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

USAROV, O. 2022. Korruptsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining o'ri. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 26–28.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2-iss1-pp26-28>.

Jamiyat ko'zgusi hisoblangan ommaviy axborot vositalarida mamlakatimiz hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, taraqqiyot kushandasi bo'lgan korruptsiyaga qarshi keskin kurash olib borilayotgani ham o'z aksini topmoqda. Yurtdoshlarimiz bosma va elektron nashrlarda shu mavzuda berilgan xabarlar, tahliliy-tanqidiy maqolalarni o'qib, korruptsiyaviy jinoyatlardan, qaysi sohalarda bu illat avj olganidan voqif bo'layotgani ham ayni haqiqat.

Ma'lumki, korruptsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashdan iboratdir.

Ushbu Qonunning 15-moddasida ommaviy axborot vositalarining korruptsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etish tartibi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, ommaviy axborot vositalari korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va

boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi. Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari garchi to'rtinchi hokimiyat hisoblansa-da, o'zidan oldindagi 3 ta hokimiyat ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, korruptsiyaga qarshi kurashishda bosma va elektron nashrlarining imkoniyatidan, bloger va jurnalistlarning salohiyatidan unumli foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korruptsiya mansabdor shaxslarning egallab turgan lavozimidan, berilgan huquq va vakolatlaridan o'z manfaati uchun, shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi hisoblanadi. Agar korruptsiyaga qarshi o'z vaqtida kurashilmasa, fuqarolarning olib borilayotgan islohotlarga ishonchi yo'qoladi, bu jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlikni vujudga keltiradi.

Afsuski, bugungi kunda biron sohada korruptsiya yo'q deb aytish mushkul. Uning ildiz otib ketganini barcha sohalarda, hatto oddiy fuqaro bilan davlat idoralari rahbarlariyu xizmatchilarigacha bo'lgan munosabatlarda ham ko'rishimiz mumkin. Korruptsiya zanjirini uzish uchun kompleks yondashish zarur.

Keyingi yillarda mamlakatimizdagi barcha sohalarda korruptsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish maqsadida keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "Korruptsiyasiz soha" loyihasining amalga oshirilayotgani ham buning yaqqol isbotidir.

Prezidentimizning 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyatini olib borishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan, jumladan, korruptsiyaviy holatlar bo'yicha davlat idoralari rahbarlarining shubha uyg'otuvchi qarorlarini to'xtatib turish, vazirliklarga bu haqida taqdimnoma kiritish vakolatiga ega.

Korruptsiyaga qarshi barcha sohalarda hamjihatlikda kurashish zarur. Bu jarayonda OAVlari eng yaqin ko'makchi va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi bilan O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida memorandum imzolanishi kutilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va ularni yoritish bo'yicha uzoq muddatli va samarali hamkorlik o'rnatishdir. Taraflar korruptsiyaga qarshi kurashish jarayonlarini keng targ'ib qilish, Uyushma va uning tarkibiy tarmoqlarida, tahririyatlarda korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida jurnalistlar malakasini oshirishga qaratilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish bo'yicha zarur choralarni ko'radi.

Memorandum doirasida Uyushmaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilanadi:

– korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni OAV da keng yoritish;

– OAVda korruptsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning oshkoraligi va ochiqligini ta'minlash hamda aholining xolis baho berishi uchun imkoniyatlar yaratish;

– OAV va Agentlik o'rtasidagi axborot hamkorligini takomillashtirish;

– korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlarini, ularga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini OAVda keng targ'ib qilish;

– korrupsiyaga qarshi kurashishga OAVni va keng jamoatchilikning e'tiborini jalb qilish;

– OAVdagi yosh jurnalistlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish;

– jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratishda ishtirok etish;

– korrupsiyaga qarshi kurashishda erishilgan natijalar samaradorligi bo'yicha keng jamoatchilikni xabardor qilish;

– davlat xaridlari sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlashdagi yutuqlar va kamchiliklar hamda o'tkazilayotgan tender (tanlash) natijalarini OAV da yoritilishiga ko'mak berish;

– “Halollik vaksinasi” tamoyili asosida uchrashuvlar va davra suhbatlarini tashkil etish.

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari bilan ham hamkorlik qilib kelmoqda. Milliy kengash majlisining 6-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan reyting baholash metodikasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlarining 2021-yil va 2022-yil birinchi yarim yillikdagi OAV bilan hamkorlik faoliyati taqdim etilgan ma'lumotlar asosida reyting baholandi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashining asosiy faoliyatidan biri sifatida belgilangan.

Reyting baholashda hududiy kengash faoliyatining OAVda yoritilgani, korrupsiyaga qarshi kurashish va “Halollik vaksinasi” mavzusiga oid davra suhbatlari, tanlov, aksiya va fleshmoblar tashkil etilgani, aholida korrupsiyaga nisbatan murosasiz kayfiyatni shakllantirishga qaratilgan ko'rgazmali vositalar (rolik, banner, flayer, ko'rsatuv, film va h.z.) tayyorlangani, korrupsiyaning oldini

olish maqsadida yoshlar orasida muntazam tushuntirish va targ'ibot tadbirlarining o'tkazilgani, kengash faoliyatidan keng jamoatchilikni xabardor qilish uchun matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar tashkil etilganiga alohida e'tibor qaratildi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishda OAVlari bilan hamkorlik ijobiy samara beradi.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST**FUQAROLIK JAMIYAT INSTITUTLARI****O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYA XAVFINI BAHOLASH
YOXUD KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
BO'YICHA BIRINCHI LABORATORIYA QANDAY
ISHLAYAPTI?**

“Yuksalish” umummilliy harakati tomonidan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat tashkiloti (Sloveniya) bilan hamkorlikda “O'zbekistonda birinchi antikorrupsiya laboratoriyalarini yaratish” loyihasi amalga oshirilmoqda. Antikorrupsiya laboratoriyasi O'zbekiston uchun korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida yangi yo'nalish va o'ziga xos tajriba maydoni hisoblanadi.

Korrupsiya – insonlarning ong ostida chuqur ildiz otib, odat tusiga kirgan, jamiyatda yurish-turish, etika madaniyatiga salbiy ta'sir qiladigan va butun tizimga zarar yetkazuvchi “kasallik” kabidir. Kasallikni davolash uchun avval to'g'ri tashxis qo'yilib, so'ngra uning sababi aniqlanishi kerak. Korruptsiyaga qarshi kurashishda ham xuddi shunday: oldin odamlarning muammoga munosabatini aniqlash, shuningdek, mansabni suiiste'mol qilishga, manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki insonlarni kasbiy huquqbuzarliklarni, norasmiy to'lovlarni amalga oshirishga va o'zaro til biriktirishga majbur qiladigan omillarni o'rganish zarur. Demak, birinchi galda to'g'ri tashxis qo'yish talab etiladi.

Aynan shu maqsadda ekspert platformasi yaratilgan bo'lib, u statistik ma'lumotlarni tahlil qilishning turli usullari, ommaviy axborot vositalaridagi kontent, ilmiy materiallar, qonunchilik, mamlakat bo'ylab maqsadli guruhlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar, xalqaro tajribadan foydalangan holda korruptsiya xavfi omillarini o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot xalqaro standartlarga muvofiq va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro ekspertlar va tadqiqotchilar ko'magida oldindan ishlab chiqilgan metodologiya bo'yicha amalga oshiriladi.

2021-yil yakunida loyiha doirasida o'tkazilgan birinchi tadqiqot natijalari keng jamoatchilikni jalb qilgan holda e'lon qilindi. Bu bolalarni boshlang'ich maktabga qabul qilishda korruptsiya va noqonuniylikni baholashga yordam berdi.

O'tkazilgan so'rovda O'zbekistonning 14 ta viloyatidagi 114 ta maktabdan 5 mingga yaqin ishtirokchi qatnashdi, ularning 114 nafari maktab direktori, 1 563 nafari boshlang'ich sinf o'qituvchisi va 3 243 nafari 1-sinf o'quvchilarining ota-onalaridir. Aprel oyida Toshkent shahridagi ikkita maktabda uch guruh respondentlar o'rtasida tajriba so'rovlari o'tkazildi. May-iyun oylarida respublika bo'ylab 28 ta shahar, 31 ta tuman markazlari, 31 ta qishloq aholi punktlarini qamrab olgan keng ko'lamlı so'rovlar olib borildi.

Olingan ma'lumotlarning ahamiyatli jihati shundaki, anonim so'rovlar qabul jarayoni ishtirokchilari duch keladigan muammoli vaziyatlar haqidagi ayrim mish-mishlarni tasdiqladi. Masalan, asosiy va qo'shimcha qabul kvotalari sharoitida bolalar uchun teng imkoniyatlarning yo'qligi, budjetdan mablag', infratuzilma va ta'minot yetishmasligi sababli maktab direktorlarining ota-onalardan yordam so'rashga majbur bo'lishi, ota-onalar va yuqori tashkilotlarning bolasini yaxshiroq maktabga joylashtirish uchun bosim o'tkazish va hokazo



BOBUR BEKMURODOV, "Yuksalish" umummilliy harakati raisi:

– *Bunday tadqiqotlar qaror qabul qiluvchi organlarga jamoatchilikning haqiqiy ovozi yetkaza olishi, joylarda ishlarning haqiqiy manzarasi va holatini ko'rsata bilishi bilan ahamiyatlidir. Ular ekspert tajribasiga asoslangan tayyor tavsiyalarni olish va maqsadli auditoriyaning tasdiqlangan ehtiyojlari asosida ish ko'rish imkonini beradi.*

Tadqiqotda korrupsiyaviy yoki xulq-atvorga zid xatti-harakatlarning namoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan 6 ta asosiy omil aniqlandi. Shuningdek, o'rganish natijalari bolalarni 1-sinfga qabul qilishda shaffoflik yo'qligi qo'shimcha kvotalar joriy etilishiga, kelajakda esa sinflar to'lib ketishiga olib kelishini ko'rsatdi. Bu esa

ota-onalar va direktorlarda xulq-atvorga zid xatti-harakatlardan (masalan, sovg'alar berish, moddiy qo'llab-quvvatlash, tashqaridan bosim va boshqa) foydalanish imkoniyatini paydo qiladi. Maktablarni moliyalashtirishning yetishmasligi ta'lim muassasasi ma'muriyatini qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini izlashga majbur qiladi, ota-onalar/o'qituvchilar/direktorlar o'rtasida o'zaro ta'sir doirasi va xizmatlar almashinuvi shakllanadi. Oqibatda, nohalol va korrupsiyaviy holatlar yuz beradi.

O'zbekiston bo'ylab o'tkazilgan so'rovda ota-onalarning 37 foizi to'g'ridan to'g'ri direktor bilan kelishishga harakat qilishi va 22 foizi buni qabul komissiyasi orqali amalga oshirishga urinib ko'rishini mumkinligi ma'lum bo'ldi. Taxminan har 10 nafar direktordan biri ota-onalar tomonidan va yana har 10 nafar direktordan biri yuqori idoralar, davlat sektoridagi shaxslar va tashkilotlar tomonidan bosimga duch kelishini ta'kidlab o'tdi.

Respondentlarning barcha guruhlari (26% ota-onalar, 29% o'qituvchilar, 3,7% direktorlar) maktabga kirishning shaffofligini ta'minlash zarurligi haqida gapirishdi. Aksariyat hududlardagi o'qituvchilar qabul jarayonini shaffoflashtirish orqali maktabning to'lib ketishini va past ta'lim sifatini bartaraf qilish mumkinligiga ishonadi.

Barcha hududlardan so'rovda qatnashgan o'qituvchilarning 71,5 foizi maktabning moliyaviy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar shaffof va ochiq bo'lishi kerakligini tasdiqladi. Ota-onalarning 45 foizi tumanlar va maktablarning moliyaviy va budjet ma'lumotlarining shaffof, to'liq va ochiq emasligidan norozi.


Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul.maktab.uz onlayn navbat tizimi joriy etilganligiga qaramay, o'rganish natijalari respondentlarning norozi ekanligini ko'rsatdi. Barcha uch toifadagi respondentlarning javoblarida va hududlar bo'yicha tahlil qilish jarayonida kvotalar yetishmayotganligi, kvotalar bo'yicha hisoblashda o'quv xonalari, maktablarning sig'imi va infratuzilmasi, demografik jihatlari hisobga olinmaganligi sababli yuzaga kelayotganligi o'z tasdig'ini topdi. O'qituvchilarning izohlari orasida ta'lim muassasalarining infratuzilma masalalari oylik maoshlari haqidagi masalalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

RUSTAM KARIMJONOV, O'zbekiston xalq ta'limi vaziri o'rinbosari:

– *Bunday tadqiqotlarni o'tkazish uchun bizda resurslar bor, lekin chuqur tahlillar yordamida xolis baho berishning iloji yo'q. Yagona tizimda ishlayotganimiz uchun quyida faoliyat yuritayotgan xodimlardan haqiqatni eshitish qiyin.*



TADVIQOT NATIJALARI: MILLIONDAN ORTIQ O'QUVCHILAR UCHUN JOY YETARLI EMAS.



Ota-onalarning 22 foizi, ya'ni har beshinchisi, kvota to'lib qolganligi sababli o'zlari yashaydigan mikrohududdagi maktabga farzandlarini bera olishmagan. Bu muammoning eng yuqori ko'rsatkichlari Navoiy viloyatida 41 foiz, Qashqadaryo viloyatida 28 foizni tashkil etadi.

Shu bilan birga, o'qishga qabul qilish jarayoni bevosita budget mablag'larining yetishmasligi bilan bog'liqligi ayon bo'ldi. So'rovda qatnashgan o'qituvchilarning qariyb 19 foizi budget mablag'lari yetishmasligi sababli ota-onalardan yordam so'rashga majbur bo'lganliklarini aytishgan.

“Maktabga yordam berish yoki mukofotlash kerakligini qayerdan bildingiz?” degan savolga ota-onalarning 40 foizi “Menga to'g'ridan-to'g'ri aytishdi” variantini tanlashgan. “Hech kim buni so'ramagan, men buni qabul jarayonini osonlashtirish/tezlashtirish uchun qildim” degan javob variantini ota-onalarning 27 foizi belgilashgan. Direktorlarning 83,3 foizi ota-onalar tomonidan maktablarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ixtiyoriy, shaffof va qonun bilan tartibga solinadigan bo'lsa, ma'qullashlarini ta'kidlashgan.




Ta'lim tizimi xodimlari ning past oylik maoshi



Maktab ehtiyojlari uchun yetarlicha mablag' ajratilmasligi



Ta'lim tizimi xodimlari ning past oylik maoshi



Maktab ehtiyojlari uchun yetarlicha mablag' ajratilmasligi




Xalq ta'limi vazirligi va uning boshqarmalari-da moliyaviy hisobdorlik tizimining ochiq emasligi



Xalq ta'limi boshqarmalari harakatlari sababli mablag'lar maktabgacha yetib bormaydi



Xalq ta'limi vazirligi va uning boshqarmalari da moliyaviy hisobdorlik tizimining ochiq emasligi



Xalq ta'limi boshqarmalari harakatlari sababli mablag'lar maktabgacha yetib bormaydi

Xalq ta'limi tizimida budjetdan tashqari to'lovlar olib borilayotganining sabablaridan biri sifatida o'qituvchilar tuman yoki shahar markazlashtirilgan buxgalteriya bo'limlarining aybi bilan maktablarga mablag'larning yetib kelmayotganligida deb bilishadi (Qoraqalpog'istonda 27 foiz, Xorazm viloyatida 20 foiz, Navoiy viloyati va Toshkent shahrida 20%, Andijonda 18%, Jizzaxda 16%, Qashqadaryo viloyatida 14%, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida 12%). Ota-onalar maktab budjetining shakllanishi va ijrosi ustidan ma'muriy va jamoatchilik nazorati yo'qligini ta'kidlashdi (Navoiyda 36 foiz, Qoraqalpog'istonda 17 foiz), shuningdek, maktablarga pul mablag'lari yetib bormayotganini ta'kidlagan ota-onalar ham shunday holatlarni xalq ta'limi buxgalteriya bo'limlarining harakatlari orqali sodir bo'layotganini qayd etdilar (respublika bo'yicha respondentlarning 11,3 foizi). Ayrim ota-onalarning fikricha, maktablar umuman moliyalashtirilmaydi (Toshkentda 33 foiz, Qoraqalpog'istonda 22 foiz, Toshkentda 21 foiz, Farg'onada 17 foiz, Namanganda 16 foiz va Surxondaryoda 15 foiz).

Maktab xodimlari maoshining pastligi ham muqobil daromad manbalarini – repetitorlik, favoritizm, ota-onalar bilan xizmatlar almashinishiga olib keladi. Natijada, etikaga zid xatti-harakatlar odatiy amaliyot sifatida mustahkamlanadi. Korruptsiya xavfi omillariga – davlat mablag'laridan maqsadsiz foydalanish va turli darajadagi o'g'rilik ehtimoli tufayli infratuzilmaning rivojlanmaganligi, shuningdek, maktab direktorining o'qituvchilar va ota-onalarga ta'siri va bosimi, ota-onalar va yuqori tuzilmalar tomonidan ma'muriyatga tashqaridan bosim kabilar kiradi.

O'qituvchilarning 45,5 foizi ish haqining pastligi sababli qo'shimcha ish olishga majbur bo'layotganini tasdiqladi.


O'qituvchilarning 26,3 foizi ota-onalarning bolalarni pulli o'qitish taklifiga rozi ekanliklarini qayd etdi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning 40 foizi budjetdan tashqari to'lovlar sababini past maoshda, deb biladi. Shuningdek, ota-onalarning qariyb uchdan bir qismi maktab tizimida budjetdan tashqari to'lovlar joriy etilishiga maktab xodimlari ish haqining pastligi sabab bo'lmoqda, deb ta'kidlashmoqda, bu muammoning yechimini barcha maktab xodimlari, hatto farroshlarning oylik maoshlarini oshirishda ko'rmoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, yetarli miqdorda yosh mutaxassis o'qituvchilar tayyorlanayotganiga qaramay, amaliyotda umumta'lim muassasalarining kadrlar bilan ta'minlanishi maktablarning pedagogik ehtiyojlariga javob bermaydi. Maktab o'qituvchilarining malaka va ko'nikmalarining yetarli darajada emasligi umumiy o'rta ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilib, maktablar va sinflar o'rtasidagi tengsizlikka olib keluvchi korruptsiya omili hisoblanadi.


Alohida qiyinchilikdan yana biri bu – bolalarning psixologik yetukligi bilan bog'liq muammolardir. O'qituvchilar va direktorlar aksariyat bolalarning maktabga tayyor emasligini ta'kidlashmoqda. Buning sababi maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi munosabatning zaifligi – bolalar bog'chasi har doim ham to'g'ri tayyorgarlik ko'rmaydi, hamma ota-onalar ham o'z farzandlarini bog'chaga yubormaydi. Natijada, bolalar maktabga turli darajadagi tayyorgarlik bilan kelishadi. Ba'zi ota-onalar farzandini maktabga erta (7 yoshgacha) yuborishga harakat qiladi.

BOLALARNI MAKTABGA QABUL QILISHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK

O'QITUVCHILARNING PEDAGOG VA PSIXOGLAR BILAN SUHBAT O'TKAZISH ZARURLIGI TO'G'RIDA HUDUDLARDA KO'P BERGAN IZOHLARI



MAVZU RESPUBLIKANING 9 TA VILOYATIDA KO'TARILGAN BO'LIB, ENG YUQORI KO'RSATKICHLAR QUYIDAGILARDIR:



Oilalarda erta yoshdan mantiqiy fikrlash ko'nikmalari shakllanmaganligi va rivojlanmaganligining sababi maktabgacha ta'lim va boshlang'ich maktab o'rtasidagi aloqaning sustligidir.

Maktab xodimlarining kasbiy halolligini idrok etish va maktabga kirishda ota-onalarning etikasini tahlil qilish, ota-onalarning maktabga murojaat qilish tartib-qoidalari va bolalarning rivojlanishi uchun javobgarligi to'g'risida xabardorligini oshirish zarur.

Tadqiqot mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan respondentlarga ta'lim tizimida mavjud bo'lgan boshqa muammolarni ham ochiq aytish, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish imkonini berdi. Ilg'or jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ma'lumotlarni ochiqlash, jarayonlarning shaffofligini sezilarli darajada oshirish korrupsiya xavfi omillarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Aniqlangan masalalar yuzasidan korrupsiya xavfini kamaytirish bo'yicha ekspert tavsiyalari korrupsiyaga qarshi laboratoriyaning asosiy mahsulotidir.

Tadqiqot natijasida ekspertlar tomonidan berilgan asosiy tavsiyalar quyidagicha:

- davlat va maktabgacha ta'lim sektorining barcha muassasalarini qamrab oluvchi sinflar soni, o'quvchilar soni, maktablar va bolalar bog'chalaridagi bepul o'rinlar to'g'risida ochiq ma'lumotlarni taqdim etuvchi, maktablarning 1-sinflariga onlayn tarzda, ya'ni ota-onalarning maktablarga borish zaruratisiz qabul qilish imkoniyatini beruvchi yagona ochiq ma'lumotlar platformasini yaratish;

- ota-onalarning moddiy yordamini huquqiy tartibga soluvchi va mablag'larni yig'ish, taqsimlash va ishlatishda shaffoflikni ta'minlaydigan huquqiy normalarni ishlab chiqish, maktab ma'muriyati va ota-onalarning maktab moliyaviy resurslarini rejalashtirish va amalga oshirishda to'liq ishtirokini ta'minlash;

- kerakli o'quvchilar o'ri bilan ta'minlaydigan bo'lajak maktablar uchun qurilish loyihalarini rejalashtirish va joylashtirish, budget mablag'larini taqsimlash va ulardan foydalanishning shaffofligi ustidan jamoatchilik bilan qat'iy kelishgan holda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- tegishli qoidalar va jarayonlarda mustahkamlangan kasbiy halollik qadriyatlarini va me'yorlarini amaliy qo'llashni o'z ichiga olgan keng qamrovli halollik tizimini joriy etish (Axloq kodeksi, axloqiy mehnat bo'yicha ilg'or tajribalar);

- ota-onalar tomonidan ularning rolini, o'quv jarayoni etikasi qoidalarini, maktab xodimlarining kasbiy etikasini yaxshiroq tushunish va tizimga ota-onalarning ishonchsizligini bartaraf etish uchun tubdan yangi platformada o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlashni tashkil etish;

- jarayonning barcha ishtirokchilari (MTV, uning bo'linmalari va maktablar ichida) nohalol yoki xulq-atvoriga zid xatti-harakatlar holatlari to'g'risida xabardor qilish tizimini va

bunday xatti-harakatlarni tuzatish, oldini olish va profilaktika qilish uchun sanksiyalar tizimini joriy etish;

- pedagogik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini (hududlar, o'qitish fanlari va tillari ehtiyojlarini hisobga olgan holda) va ularning malakasini oshirishni qayta ko'rib chiqish, kasbga tabiiy qobiliyatlarni aniqlash asosida shaffof tanlashni ta'minlash orqali kadrlar ulushini oshirish, ta'lim o'quv portfellarida amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish. Bo'lajak o'qituvchilarda halollik, o'qituvchi degan yuksak kasbdan g'ururlanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Shuni tushunish kerakki, kattalarning, shu jumladan, ota-onalarning etikaga zid xatti-harakatlari bolaligidanoq, masalan, yaxshi baho evaziga o'qituvchining sovg'a qabul qilishi, bolaning boshqa yoki yaxshiroq sinfga o'tkazilishi uchun direktorga ta'sir qilishi

bolalar xotirasida saqlanib qolishi mumkin. Bu hozirgi va kelajakda halollikni ta'minlash, korrupsiya xavfining oldini olishni ancha qiyinlashtiradi, shuningdek, o'qituvchining mavqeini pasaytiradi. Ishlab chiqilgan mexanizm va metodologiyadan boshqa sohalar ham korrupsiya xavfini baholashda foydalanish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish laboratoriyasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun respublika hukumati, Xalq ta'limi vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashiga taqdim etildi.

O'zbekistonda ta'lim tizimining shaffoligini ta'minlash korrupsiya xavfini kamaytiradi va pirovardida bu katta yutuq hisoblanib, boshqa muhim sohalar uchun namuna bo'ladi.

Mjuša SEVER, **“Mintaqaviy muloqot” XNT direktori (Sloveniya):**

“ – “Yuksalish” umummilliy harakati katta ko'lamdagi tadqiqot olib bordi, u nafaqat poytaxtdagi maktablarni, balki republikaning barcha viloyatlarini qamrab oldi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim, mahalla va sog'liqni saqlash tizimi bilan ham o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish zaruratini ko'rsatmoqda. O'zbekiston rahbariyati ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, mablag'lar ajratishidan xabardormiz. Mamlakat aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etar ekan, demak, ta'lim olishga talab ham juda yuqori.



Umida TUXTASHEVA, **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori** **o'rinbosari:**

“ – Loyihada nodavlat notijorat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlarining faol ishtirokchisi bo'lishi va yaxshi natijalar ko'rsata olishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tanlangan mavzu juda dolzarb va mamlakatimizning deyarli har bir fuqarosiga taalluqli.



Xushnodbek XUDOYBERDIYEV,
O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori
o'rinbosari, huquqshunos, blogger:



“ – Davlat va jamiyatni isloh qilish uchun bunday so'rovlar, tadqiqotlar zarur. Chunki, odatda, biror davlat muayyan strategik qarorlar qabul qiladi, ixtisoslashgan idoralar rahbarlarining dunyoqarashi, sohani qanday tushunishidan kelib chiqqan holda hujjat va dasturlar ishlab chiqadi. Buning uchun, birinchi navbatda, fundamental tadqiqotlar, ilmiy asoslar va ijtimoiy so'rovnomalar kerak, deb o'ylayman.



Lyudmila Stayshyunayte,
“O'zbekistonda birinchi antikorrupsiya laboratoriyalarini yaratish” loyihasi menejeri

XALQARO HAMKORLIK

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR

So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqaro hamjamiyat tomonidan eng dolzarb global muammolardan biri sifatida qabul qilinmoqda. Ushbu illat mamlakatlarning ichki muammosi bo'lib qolmasdan, barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga daxl qiluvchi transmilliy hodisaligi xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmlari yangilab borilmoqda.

Bugungi kunga kelib, korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik deyilganda, faqatgina xorijiy hamkor taraf tomonidan korrupsiya sodir etgan shaxslarni ushlab berish, tergov harakatlarini olib borish yoki aktivlarni qaytarish masalalari emas, balki tizim samaradorligini oshirish uchun tajriba almashish, kadrlar malakasini oshirish, hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, turli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar formatida tadbirlar tashkil etish, birgalikda ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish kabi keng ko'lami chora-tadbirlar tushuniladi.

BMT bosh kotibi A. Gutterish o'zining 2021-yil 3-iyundagi ma'ruzasida: "Hamkorlikda biz hisobdorlik, shaffoflik va yaxlitlik uchun yanada mustahkam tizimlarni yaratishimiz kerak", – deya ta'kidlagan edi.

Korrupsiyaning davlatlar iqtisodiyoti, siyosati va ijtimoiy hayoti uchun halokatli ta'sirga ega ekanligini jonli misollar orqali bir nechta mamlakatlar inqirozida ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali amaliyotga ega bo'lgan Singapur, Shvetsiya, Finlandiya kabi bir qator mamlakatlar bugungi kunda eng rivojlangan mamlakatlar qatorida e'tirof etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha har bir mamlakat o'z tajribasi va amaliyotiga ega bo'lib, ulardan jahonda keng tarqalgan 3 ta asosiy modellarni sanab o'tishimiz mumkin:

– **G'arbiy Yevropa davlatlari modeli** (*ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jamoatchilik va biznes hamjamiyatning faolligini oshirish, davlat organlari va tashkilotlari shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash*);

– **Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari modeli** (*kadrlar malakasini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi alohida institutlarni tashkil etish*);

– **AQSH modeli** (*korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odoq-axloq qoidalari*).

Mintaqaviy va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini qo'llash, ya'ni korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qo'shma tadbirlar tashkil etish, o'zaro tajriba almashish, xalqaro tashkilotlar doirasida tavsiyalar ishlab chiqish, ilmiy va moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirishga erishiladi.

Mazkur maqsadlarni ro'yobga chiqarish, xalqaro hamjamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan XX asrning so'nggi yillaridan boshlab bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Xususan:

– 1996-yil 29-mart kuni **Amerika davlatlari** tashkiloti tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Amerikaaro konvensiya;

– 1997-yil 26-mayda **Yevropa Ittifoqi Kengashi** tomonidan Yevropa hamjamiyatining mansabdor shaxslariga yoki Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning mansabdor shaxslariga daxl qilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiya;

– 1997-yil 21-noyabrda **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti** tomonidan Xalqaro tijorat amaliyotlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiya;

– 1999-yil 27-yanvarda **Yevropa Kengashi vazirlar Qo'mitasi** tomonidan Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya;

– 1999-yil 4-noyabrda **Yevropa Kengashi vazirlar Qo'mitasi** tomonidan korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi to'g'risidagi Konvensiyasi;

– 2003-yil 12-iyulda **Afrika ittifoqiga** a'zo davlat va hukumatlar rahbarlari tomonidan Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga doir Afrika ittifoqi Konvensiyasi qabul qilingan.

Yuqoridagi hujjatlarning qabul qilinishi **2003-yil 9-dekabr** kuni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yagona xalqaro standartlarni o'z ichiga oluvchi universal hujjat – **BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining** qabul qilinishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunga kelib, dunyoning **189 ta** davlati Konvensiyani imzolagan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi **2008-yil 7-iyuldagi** "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni bilan Konvensiyaga qo'shilgan. Konvensiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida profilaktika choralari, javobgarlik muqarrarligini ta'minlash va huquqni muhofaza qilish, xalqaro hamkorlik, aktivlarni qaytarish, texnik yordam va axborot almashish yo'nalishlari belgilangan.

Ta'kidlash joizki, Konvensiyaning 6-moddasida har bir ishtirokchi davlat o'z huquqiy tizimlarining asosiy tamoyillariga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish ishlarini

amalga oshiradigan organ yoki tegishli holatlarda organlar mavjud bo'lishini ta'minlashi belgilangan.

Yurtimizda so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid bir qator konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularda mazkur konvensiya va boshqa xalqaro standartlar talablari inobatga olindi.

Shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslari takomillashtirilib, **2020-yil 29-iyun** kuni sohaning rivojiga turtki bo'ladigan ikki muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshiruvchi yangi tuzilma – **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi.

Agentlik mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi sifatida belgilanib, uning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari qatoridan quyidagilar o'rin olgan:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro vositalarni joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, sohadagi qonunchilikni takomillashtirish.

2. Sohada xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

3. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

4. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning nufuzini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mazkur yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Agentlik faoliyati davri davomida keng ko'lamlı ishlar bajarildi.

Xususan, barcha davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy usul va vositalarini keng joriy etish maqsadida "komplayens nazorat" tizimi yo'lga qo'yildi hamda Agentlik tomonidan BMT TD bilan hamkorlikda **ISO 37001:2016** xalqaro standarti talablariga muvofiq, vazirlik va idoralar faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tashkil etishga doir **10 ta** ichki idoraviy hujjatlarning namunalari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda **12 ta** vazirlik va idoralar mazkur sertifikatni qo'lga kiritdi.

2021-yil davomida Agentlik va BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tomonidan "**Markaziy Osiyoda samarali boshqaruvda fuqarolik jamiyatlarining salohiyatini kuchaytirish**" loyihasi amalga oshirildi. Mazkur hujjat doirasida korrupsiyani qabul qilish milliy indeksi metodologiyasi ishlab chiqildi, normativ hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish usullarini takomillashtirish, sotsiologik tadqiqotlar olib borish, xorijiy davlatlarning tajribasini joyida o'rganish kabi masalalarda hamkorlik qilindi.

Shuningdek, Agentlik va YXHT o'rtasida 2021–2022-yillarga mo'ljallangan "**Korrupsiyaga qarshi kurashishda O'zbekistonda ko'maklashish**" loyihasi ishlab chiqilib, ikki tashkilot o'rtasida imzolangan chora-tadbirlar rejasi asosida hujjat samarali amalga oshirilib kelinmoqda.

Loyiha doirasida davlat organlari va tashkilotlari ochiqqligini ta'minlash hamda ochiq ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda korrupsiya holatlari to'g'risida Agentlikka xabar beruvchi platforma (eanticor.uz) ishlab chiqildi hamda takomillashtirilib borilmoqda. Bugungi kunda ushbu platformaning mobil versiyasini ishga tushirish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, mazkur xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda har oy o'zbek, rus va ingliz

tillarida chop etiladigan "**Uzbekistan Anti-Corruption Digest**" onlayn jurnali ta'sis etildi.

So'nggi yillarda BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi va boshqa xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi:

– **2021-yilning noyabr oyida** Konvensiyaning 10-moddasi (*davlat sektorida hisobdorlik*) talablarini bajarish va korrupsiyaga qarshi maxsus tadbirlarni xususiy sektorga joriy etishga faol ko'maklashish maqsadida Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman hamda Agentlik tomonidan **O'zbekiston biznesining Korrupsiyaga qarshi kurashish xartiyasi** e'lon qilindi;

– yuqoridagi modda talabidan kelib chiqib, **2021-yil 16-iyunda** davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**"gi PF–6247-sonli Farmoni qabul qilinib, unga muvofiq, ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlandi;

– **2021–2022-yillar uchun** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturida Konvensiya talablariga muvofiq, Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxatini belgilash, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarini uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasigacha kuchaytirish, daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o'rnatish hamda korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalarni qo'llashga doir cheklov o'rnatish belgilandi.

Agentlik tomonidan xalqaro hamkorlar bilan birgalikda **50 dan** ortiq yirik anjumanlar (forum, konferensiya, seminar-trening) tashkil etildi. Shuningdek, Agentlik faoliyati yo'nalishlariga tegishli vazifalar ijrosini

ta'minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar, aksilkorrupsiya faoliyatini amalga oshiradigan xorijiy davlatlar mas'ul organlari hamda elchixonalar vakillari bilan 100 dan ortiq uchrashuvlar tashkil etildi. Jumladan:

– BMTning Taraqqiyot dasturi, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi, YXHT, Xalqaro "Meros" jamg'armasi, Germaniya Xalqaro hamkorlik jamg'armasi (GIZ), "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD), Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi;

– Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Finlyandiya, Rossiya Federatsiyasi, Norvegiya, Shveysariya elchixonalari;

– Ukraina, Ozarbayjon, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Tojikiston, Pokiston, Afg'oniston, Moldova, Misr Arab Respublikasi, Malayziya va Singapur korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari rahbarlari bilan uchrashuvlar tashkil etilgan.

Xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari bilan hamkorlikka oid **7 ta** hamkorlik to'g'risida memorandumlari va **3 ta** hamkorlik dasturlari imzolandi.

Jumladan, Agentlik hamda **BMTning Giyohvand moddalar va Jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Konrad Adenauer jamg'armasining** O'zbekistondagi vakolatxonasi, **Qozog'iston Respublikasi** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, **Tojikiston Respublikasi** Davlat moliyaviy nazorati va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha agentligi, **Buyuk Britaniyaning** O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonasi va Hukumatlararo hamkorlik xizmati, **Sloveniyaning** Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi, **Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti** hamda **Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi** bilan memorandum va hamkorlik dasturlari imzolandi.

Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Armaniston, Belarus, Moldova va Malayziya

davlatlarining korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlari bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum loyihalari ishlab chiqilgan bo'lib, bu borada hamkor tashkilotlar bilan kelishilmoqda.

Agentlik delegatsiyasining **7 ta** xorijiy davlatlarga **5 marotaba** xizmat safarlari tashkil etildi. (*Ozarbayjon Respublikasiga, Germaniya, Fransiya va Avstriya, Misr Arab Respublikasiga va Qozog'iston Respublikasiga*).

Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan har yili aksilkorrupsiya haftaligini tashkil etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Haftalik doirasida BMT TD, BMT GJB, YXHT, YTTB, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti, Konrad Adenauer jamg'armasi va UNICEF bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etildi.

Tadbirlar doirasida turli daraja va formatlarda forum va konferensiyalar, ko'rik-tanlovlar, aksiya va fleshmoblar, davra suhbatlari, treninglar hamda tok-shoular o'tkazildi.

2021-yilning 16-iyun kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari rahbarlari va ombudsmanlarining 4-yig'ilishi Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Unda a'zo davlatlar mutasaddi idoralari **40 nafardan** ortiq vakillari ishtirok etishdi.

Mazkur yig'ilishda a'zo davlatlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida mintaqaviy tajriba almashish, davlatlar o'rtasida yagona korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati mexanizmini shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, tizimda qo'shimcha takliflar ishlab chiqish, sohada faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy faoliyatini yuksaltirish masalalari muhokama qilinib, IHTning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Mintaqaviy markazi nizomiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqishga kelishildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, hamkorlik samaradorligini va geografiyasini kengaytirish yuzasidan Agentlik tomonidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

DAYJEST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA QABUL QILINGAN HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PF-6013-sonli Farmoni**.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi **PQ-4761-sonli qarori**.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PF-6247-sonli Farmoni**.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-6257-sonli Farmoni**.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PQ-5177-sonli qarori**.

6. O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining 2021-yil 19-avgustdagi **4-sonli bayonnomasi** bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi to'g'risida"gi Nizomi.

7. O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining 2021-yil 19-avgustdagi **4-sonli bayonnomasi** bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi korruptsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari to'g'risida"gi Nizomi.

8. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi **O'RQ-729-sonli Qonuni**.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PQ-34-sonli qarori**.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-81-sonli qarori**.

MEHMON

KORRUPSIYAGA QARSHI ISLOHOTLARGA UNIVERSAL, HAMMAGA BIRDEK ISHLOVCHI YAGONA YONDASHUV MAVJUD EMAS – Xachik ARUTYUNYAN *

* Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining Korruptsiyaga qarshi kurashish va samarali davlat boshqaruvi bo'yicha maslahatchisi, Syurix universiteti yuridik fakulteti bitiruvchisi, xalqaro ekspert.

Copyright © 2022 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar Creative Commons «Attribution» («Atributatsiya») 4.0 shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Arutyunyan, X. 2021. Korruptsiyaga qarshi islohotlarga universal, hammaga birdek ishlovchi yagona yondashuv mavjud emas. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (dek. 2021), 41–43.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol2-iss1-pp41-43>

– Korruptsiyaga qarshi kurashish doimo rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning kun tartibida turadi.

Ayting-chi, rivojlanayotgan davlatlar misolida qaysi davlatning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlari sizning e'tiboringizni tortdi va qaysi jihatlariga to'xtalib o'ta olasiz?

Korruptsiyaga qarshi kurashishda samarali natijalarga erishgan davlatlar misolida uzoq yillik "donolik" borligini ko'rishimiz mumkin: muvaffaqiyatning asosiy tarkibiy qismi yuqori rahbarlardagi mavjud kuchli siyosiy irodadir. Korruptsiyaga qarshi kuchli "talab" mavjudligi ham juda muhim. Biroq qolgan ingredientlar bevosita har bir mamlakat kontekstiga bog'liq bo'ladi. Har bir mamlakatda qiyinchiliklar, muammolar har xil bo'ladi va shunga yarasha tashxis ham turlicha bo'lishi kerak. Korruptsiyaga qarshi islohotlarda universal, hammaga birdek ishlovchi yagona yondashuv mavjud emas.

Masalan, Armanistonda korruptsiyaga qarshi islohotlar bo'yicha ko'p ishlar qilingan bo'lsa-da (Korruptsiyaga qarshi kurash qo'mitasi, Korruptsiyaning oldini olish bo'yicha komissiya, korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha ixtisoslashtirilgan sudyalari, Aktivlarni undirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuratura tuzildi, xarajatlarning ham deklaratsiyasini joriy etish va deklaratsiya to'ldirishi majbur bo'lgan subyektlarning sonini kengaytirish yo'li bilan aktivlarni deklaratsiyalash tizimi takomillashtirildi), lekin muvaffaqiyatning asosiy «maxfiy tarkibiy qismi» bu Bosh vazirning kuchli siyosiy irodasi bo'ldi va shunday bo'lib qolmoqda. Soliq va bojxona xizmatlari juda qisqa vaqt ichida jazolovchi tizimidan biznes uchun qulaylik yaratuvchi tizimga aylandi.

Gruziyaga kelsak, mamlakatda politsiya, bojxona va soliq idoralari, davlat xizmatida qator islohotlar amalga oshirildi.

Va nihoyat, Butan Qirolligini oladigan bo'lsak, mamlakat rahbari, ya'ni qirol u yerda ham islohotlarning lokomotiviga aylandi. Butan "Transparency International" tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksida 68 ball to'pladi va 180 mamlakat ichida 25-o'rinni egalladi (yetarli darajada hurmatga sazovor pozitsiya). Butan kiritgan yangiliklaridan biri shundaki, uning Konstitutsiyasida korrupsiyaga qarshi kurash har bir fuqaroning huquqi va burchi ekanligi qayd etilgan.

– Xalqaro baholovchi tashkilotlar, asosan, o'rganish natijalari bo'yicha muammolarni keltirib o'tishadi. Ammo aniq muammoga to'g'ri yo'naltirilgan yechimlar juda ozdir, shundan kelib chiqib, qaysi baholovchi tashkilotlar bilan hamkorlik dasturlarini kengaytirish lozim deb o'ylaysiz?

– Xo'sh, men bu savolga to'liq qo'shila olmayman. Menimcha, qayd etilgan so'rovlar natijalarining o'zi tavsiyaviy harakatlar misolidir. Masalan, "Transparency International" tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksini olaylik. Biz bilamizki, bu kompozit (turli ko'rsatkichlar asosida tuzilgan) indeks bo'lib, mamlakat ballining oshishi yoki kamayishi sabablarini osongina aniqlashtirishimiz mumkin. Misol uchun, agar past ball "Freedom House" tashkilotining "O'tish davridagi mamlakatlar" xulosalari bilan bog'liq bo'lsa, demak, unda biz aynan nimalarni o'zgartirishimiz va isloh qilishimiz kerakligini osonlik bilan tushunishimiz mumkin.

Men, haqiqatan ham, muhim deb bilgan narsa yillar davomida shakllanadigan hamda "Transparency International", UNCAC koalitsiyasi va boshqalar kabi turli xalqaro nodavlat tarmoqlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya oladigan kuchli fuqarolik jamiyatiga ega bo'lishdir. Agar, masalan, O'zbekistonda "Transparency International"ning rasmiy bo'limi vujudga kelsa, shubhasiz, uning birinchi tadqiqot mahsulotlaridan biri bu korrupsiyaga qarshi kurashda fundamental tadqiqot hisoblanadigan va mamlakatning barcha kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatib beruvchi "Milliy halollik tizimini baholash" tadbiri bo'ladi

(unda nafaqat davlat sektori, balki xususiy sektor va fuqarolik jamiyati ham baholanadi).

– Korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, preventiv choralarni ko'rish va jazo muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan elementlardan tashkil topgan jarayon hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonini yaxlit 100% deb oladigan bo'lsak, siz korrupsiyaga qarshi kurashish elementlarining o'rnini (foizlarda) qay tartibda belgilagan bo'lar edingiz?

– Bu qiziq savol. Fikrimcha:
99% – jazoning muqarrarligi;
0,5% – preventiv choralarni ko'rish;
0,5% – xabardorlikni oshirish.

Nega men birinchi o'ringa "Jazoning muqarrarligi"ni qo'ydim? Albatta, bu yerda men jazolash jazolanuvchiga qarab, tanlab qo'llanilmasdan, hech qanday kamsitishsiz, hammaga barobar qo'llaniladigan universal vosita bo'ladi, degan shart bilan aytyapman. Biroq nima uchun bu omilga 99% bog'liq? Chunki bu siyosiy iroda mavjudligining ajoyib tasdig'idir. Ko'pgina mamlakatlarda biz korrupsiyaga qarshi juda kuchli qonunlarni ko'rishimiz mumkin, ammo ularning ijrosi umuman yo'q. Albatta, korrupsiyaga qarshi zarur institutsional va qonunchilik infratuzilmasini yaratish nihoyatda muhim, ammo bu infratuzilma adolatli, samarali va hech qanday kamsitishlarsiz usulda ishlatilmasa, undan nima foyda? Masalan, bu juda katta kutubxonaga ega bo'lib, lekin umuman kitob o'qimaslikka o'xshaydi.

– O'zbekistonda ham so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Shu o'rinda ular orasida eng konseptual deb hisoblaydigan islohotlarni sanab bersangiz.

– Men uchun eng muhimlari bu "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi va "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, degan bo'lardim.

– 2020-yilda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini muvofiqlashtiruvchi va davlat siyosatini olib boruvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Agentlikning asosiy yo'nalishlari etib, korrupsiyaning oldini olish, ya'ni preventiv mexanizmlarni kuchaytirish belgilandi. Ushbu shakldagi idoralar qaysi davlatlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda hamda bugungi O'zbekiston sharoitidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu yo'ning tanlangani qanchalik to'g'ri?

– Ko'pgina mamlakatlarda, masalan, Sloveniya, Fransiya, Chernogoriyada (va bu hali hammasi emas) aynan ushbu yo'l tanlangan. Yo'lingizning tavsifiga kelsak, umuman olganda, korrupsiyaga qarshi preventiv agentlikning tashkil etilishi bu xavfsiz yo'l, degan bo'lardim. Nega? Chunki u zarur tayyorgarlik ishlari olib borilib, shundan so'ng (yoki to'plangan muvaffaqiyatlar asosida) ko'p funksiyali agentlik tuzilishi mumkin.

– **Korrupsiya holatini baholash bo'yicha yetakchi xalqaro reytinglar mamlakatlardagi korrupsiya darajasini belgilashni qanchalik to'liq ochib bera oladi, deb hisoblaysiz?**

– Savolning birinchi qismiga kelsak, janob Uinston Cherchillning so'zlaridan iqtibos keltirishga va bu holatga o'xshatma ishlatishga ijozat berasiz: "Demokratiya bu boshqaruvning eng yomon shaklidir, albatta, boshqa barcha sinovlardan o'tkazilgan turlaridan tashqari". U nimani nazarda tutgan edi, siz demokratiyani boshqaruv shakli sifatida yoqtirmasligingiz mumkin, ammo insoniyat shu vaqtgacha undan yaxshiroq narsani ixtiro qildimikan? Boshqacha qilib aytganda, bizda yana nima bor?

Savolga qaytadigan bo'lsam, parallellikni keltiraman. Ha, albatta, ba'zi indekslar bilan bog'liq muammolar mavjud va ushbu indekslar mualliflari buni o'zlari tan olishadi. Biroq korrupsiyaga qarshi ekspertlar hamjamiyati doimiy ravishda indekslarni yaxshilash va yangi indekslarni yaratish ustida ishlamoqda. Ishonamanki, 5-10 yil ichida prinsipial jihatdan yangi va o'ta izchil ko'rsatkichlar paydo bo'ladi.

– **Yoshlarni korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlariga faol jalb qilish uchun qanday jihatlar va choralarga e'tibor qaratish lozim?**

– Frensis Bekon aytganidek, "Agar keksalar qila olganlarida, yoshlar esa bilganlarida edi". Bu gapi bilan u yoshlar katta kuchga ega ekanliklarini, ammo asl donishmandlik

sohiblari – bu hikmatni o'z tajribasiga tayanib, boshqalarning xatolaridan saboq olib, to'plagan yoshi ulug' insonlar ekanligini ta'kidlamochi bo'lgan. O'zgarishlarni amalga oshirishda yoshlarning kuchi juda katta. Yoshlarni samarali jalb etish uchun, birinchi navbatda, ular bilan ularning o'z tilida gaplashish zarur. Ikkinchidan, yoshlar bilan, avvalo, ularga o'rnak bo'ladiganlar, ya'ni ko'ngliga xush kelib, ishonchidan bahramand bo'lgan insonlar gaplashishi kerak.

– **Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida kelgusida qaysi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaysiz?**

– Vaziyatga mustaqil kuzatuvchi sifatida nazar tashlasam, ko'p muammolar va ustuvor vazifalar mavjud manzarani ko'raman. Ustuvor yo'nalishlar bo'yicha: Birinchidan, qat'iy va yengil xalqaro huquqiy hujjatlarni qo'llash orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslarini mustahkamlash zarur.

Ikkinchidan, ilg'or xalqaro tajriba va qat'iy va yengil xalqaro huquqiy hujjatlarga asoslangan Korrupsiyaga qarshi kurashish Strategiyasini qabul qilish lozim.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyatini (birinchi navbatda, NNT) barpo qilish masalalarini, uning faoliyati va ishtirokini tartibga soluvchi qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish kerak. Boshqacha qilib aytganda, kurashga "talab"ni kuchaytirish va bu fuqarolik jamiyatining samarali faoliyati bilan bog'liq boshqa qonunchilik hujjatlarini ham isloh qilishni nazarda tutadi.

To'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash choralarini hududlarga olib borish.

Beshinchidan, korrupsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish va tegishli qonunchilikni isloh qilish.

Oltinchidan, sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar.

Yettinchidan, qonunlar ijrosini ta'minlash va korrupsiya uchun jazo muqarrar ekanligi haqida jamoatchilikka qat'iy xabar berish.

Bularning barchasi birgalikda jamoatchilik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashning kuchli qo'llab-quvvatlanishini va bu boradagi islohotlarga aholining ishonchini oshiradi.